



**JADIDLAR**



*Manavvar qori*  
**ABDURASHIDXONOV**

**YOSHLAR ISHLARI**  
AGENTLIGI



821.512.133.09.3

№72

**Jadidlar**

**MUNAVVAR QORI  
ABDURASHIDXONOV**

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-3

KBK 83.3(50')

X 72

**Xolboyev, Sotimjon**

Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov [Matn]: risola./  
S.Xolboyev. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 152 b.

*Loyiha rahbari:*

**Alisher Sa'dullayev**

*Muallif:*

**Sotimjon Xolboyev,**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

*Mas'ul muharrir:*

**Bahodir Karimov,**

filologiya fanlari doktori, professor

**Ijodiy guruh: Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

Tarixchi olim Sotimjon Xolboyev qalamiga mansub ushbu risolada jadidchilik harakati rahnamalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonovning hayot yo'li va ijtimoiy-ijodiy faoliyatiga nazar tashlanadi. Uning tarixda tutgan o'rni hamda eng muhim madaniy-ijtimoiy xizmatlari tahlil etiladi. Shuningdek, risoladan adibning hikmatli so'zlari va ziyolilarning e'tiroflari ham o'rin olgan.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-6682-8-7

© S.Xolboyev, 2022

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2022/15-5

Yoshlar nashriyot uyi, 2022



“Buyuk ajdodlarimizning muqaddas xotirasi va jasoratlari oldida bosh egamiz. O‘z tarixini bilgan yutadi”.

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



## HAYOT YO'LI

**D**unyoga mashhur atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov o'tmish tariximiz va ajdodlarimizga taalluqli: "Qadim Gretsiya Ovrupada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi butun turkiy o'lkalar va turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallagan", degan fikrlari juda ham muhim. Haqiqatan buyuk Ona tariximizda bizlar ham, bizlardan keyingi avlodlarimiz ham, hatto chet ellarda ham hamisha qadrlaydigan buyuk ajdodlarimiz juda ko'p. Shulardan biri mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yetakchi rahnamosi Munavvar qori Abdurashidxonovdir.

**U 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tabur dahasi, Darxon mahallasidagi elga taniqli oilada dunyoga keldi.**



Unga yaxshi niyatlar bilan padari buzrukvori madrasa mudarrisi Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o'g'li va volidayi mehriboni, otinoyi Xosiyatxon (1845–1931) Xonxo'ja Shorahimxo'jayev (1841–1941)ning qizi Munavvar, ya'ni nurli va nur bilan yo'g'rilgan degan ma'noni anglatuvchi ism qo'ydilar.

Munavvarning otasi Abdurashidxon o'z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o'quvchiga dars bergan. Onasi Xosiyatxon ham shu hovlida xotin-qizlarni o'qitib, ularga bilim bergan. 1885-yilda Munavvar 7 yoshga kirganda otasi vafot etadi. Abdurashidxon va Xosiyatxon 3 o'g'il ko'rishgan edi. Kattasi A'zamxon (1872–1919), o'rtanchisi Muslimxon (1875–1954), kichigi Munavvar edi.

Munavvar va akalarining yeb-ichishi-yu kiyinishlari, ta'lim-tarbiyasi-yu hayotda o'z o'rnini topishi onasi Xosiyatxon ayaning zimmasiga tushdi. U o'z davrining ilimli, o'qimishli, fozila ayollaridan bo'lib, farzandlarini

o'qimishli qilib voyaga yetkazdi, uyli-joyli qildi.

Munavvar yoshligidan o'tkir zehqli, akalari qatori ilmga chanqoq bo'lib o'sdi. U onasidan boshlang'ich ta'limni oldi. Undan so'ng, dastlab Toshkentda Yunusxon madrasasida o'qiydi. Keyin esa o'n yoshlarida **Buxoroga borib,**



**u yerdagi madrasalardan birida besh yil hadis va fiqh ilmi tahsiliga beriladi.** Toshkentga qaytib Darxon mahallasi masjidida imomlik qiladi.

Ilk bor mustaqil faoliyat yuritib, xalqqa islom ilmi nurini

yoydi. U diniy, dunyoviy va ijtimoiy-siyosiy mazmundagi kitoblarni, jurnal va gazetalarni sevib o'qiydi. Ayniqsa, jadidchilikning "otasi" Ismoilbek Gaspirali Qrimda chop etayotgan "Tarjumon" (1883—1914) gazetasi Munavvarning millatparvar, xalqchil bo'lib yetishishiga katta ta'sir qiladi.

Munavvar qorining shogirdlaridan biri Laziz Azizzodaning yozib qoldirishicha, inqilob arafasida Turkistonga, jumladan, Toshkentga Rusiya, Turkiya, Misr, Eron va boshqa sharqiy mamlakatlardan ko'plab turli xil ilg'or fikrli jurnal, gazeta va to'plamlar kelib turgan. Ular ziyoli va yoshlar orasida, madrasalarda qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilgan. Bulardan Munavvar qori Abdurashidxonov ham bahramand bo'lgani shubhasiz. U turkiy tillardan tashqari rus, fors tillarini ham yaxshi bilgan.

Munavvar qori yoshligidan Vatan taqdiri, xalqning ijtimoiy turmushi, "oq poshsho" va uning o'lkadagi mustamlakachilik, ruslashtirish





va islom dinini zaiflashtirish siyosati haqida o'ylay boshladi. U Vatan ozodligi iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, eng avvalo, mutaassiblashib taraqqiyotdan orqada qolgan xalq maorifi isloh qilinib, diniy va dunyoviylikka asoslangan yangi boshlang'ich o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi yaratilishiga bog'liq ekanligini juda erta tushunib yetadi. Mana shuning uchun ham Munavvar qori XIX asrning 90-yillarida Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qrimda joriy qilingan "usuli jadid" — "usuli savtiya" (tovush usuli)ga asoslangan yangi maktab ochishga bel bog'laydi. Ammo, unga chor ma'muriyati, rus ziyoli missionerlari, mahalliy musulmon mutaassiblari qarshilik qiladi. Juda katta mehnat va turli ta'qiblarga bardosh berish evaziga **Munavvar qori 23 yoshida o'z uyida 1901-yil Turkistonda birinchilar qatorida jadid maktabini ochishga muvaffaq bo'ladi.** Unda bolalar o'qish-yozishni olti oyda o'rganib to'la savodli bo'ladi. Buning



uchun usuli qadim — eski an'anaviy maktablarda esa besh yil vaqt sarflanar edi. O'z mehnatidan to'la ma'naviy qoniqish hosil qilgan va ilg'or usulning natijalarini chuqur his etgan Munavvar qori asosiy e'tiborni xalqqa ma'rifat tarqatishga, shuningdek, chorizm mustamlakasining xilma-xil nayranglariga qaratdi. Inqilobdan oldin u bu "qilmishi" uchun bir necha bor chor amaldorlari tomonidan ta'qib qilinadi, surgun qilinishi haqida ogohlantiriladi, ammo bu tahdidlar uni sira cho'chita olmadi.

Munavvar qorining madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati birinchi (1905—1907) va ikkinchi (1917-yil fevral) rus inqiloblari va bularning Turkistonga ta'siri jarayonida yanada yuksaklikka ko'tariladi. Bu davrda u faqat jadid maktablarini tashkil etish va ularda yoshlarni o'qitish bilan cheklanmay, faol adib, jurnalist, noshir, olim, siyosiy arbob sifatida Turkistondagina emas, balki O'rta Osiyo va Rossiya musulmonlari orasida ham katta obro'



qozonadi. Munavvar qori faoliyatini birinchilardan bo‘lib tadqiq qilgan, jadidchilik harakatining bilimdoni, atoqli adabiyotshunos Begali Qosimov bu to‘g‘risida shunday yozadi: **“Bu nomni (Munavvar qori Abdurashidxonovni. – S.X.) 30-yillarda Turkiyadagi Mustafo Rashid Poshsho, Ozarbayjondagi Mirzo Fathali Oxundzoda, Qrimdagi Ismoilbek Gaspirali qatoriga qo‘ygan edilar”**<sup>1</sup>.

Munavvar qori maktabi tahsilidan so‘ng Germaniyada o‘qib, ziroat ilmining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishgan Ibrohim Orifxon o‘g‘li Yorqin (1901–1996) yozadi: “Tarixni shaxslar yaratadi. Tarix tarjimai hollardan, ayniqsa, atoqli kishilarning tarjimai hollaridan iboratdir deyilar. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o‘tgan asr so‘ngidan boshlangan uyg‘onish davrini boshlab Munavvar qori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilar

---

<sup>1</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. 234-235-бетлар.

davri boshidan oxirigacha Munavvar qorining tarjimai holidan iboratdir desak yanglishmaymiz” (“Yosh Turkiston” jurnali, 1934-yil, yanvar, 50-son),

Munavvar qori, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘z mahallasi Darxondagi masjidida imom-qori lavozimida ilk bor mustaqil faoliyat yuritib, xalqqa islomiy va dunyoviy ilmlarni yoydi. Mana shu muqaddas dargoh — Alloh taoloning uyida ongi-tafakkuri takomil topdi, millat dard-u alami, hol-ahvolidan to‘la xabardor bo‘ldi. Ma’lumki, tarixan shu davr xalqimizda chor Rossiyasining mustabid mustamlakachilik zulmi kuchayishi evaziga iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy qashshoqlik, mutaassiblik, ma’rifatsizlik kuchaygan edi. Shuningdek, qadim an’anaviy boshlang‘ich, o‘rta maktab va oliy madrasa ta’limi o‘z taraqqiyoti yo‘lidan chiqib, davr talabidan orqada qolgan edi.

Ustiga-ustak, pala-partish, tarqoq xalq g'alayon va qo'zg'olonlari tobora kuchayib, behuda qonlar to'kilishi-yu azob-uqubatlardan avj olayotgan, juda ham ayanchli siyosiy vaziyat yuzaga kelgandi. Bularga javoban nafaqat Turkiston, balki Butunrossiya musulmon ziyolilari orasida yangicha ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy dunyoqarash, uyg'onish, ya'ni jadidchilik harakati paydo bo'lib, jaholatga qarshi ma'rifat shiori ostida bo'y ko'rsatdi.

Munavvar qori bu yangi diniy va dunyoviylikka asoslangan harakatning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalarini juda erta anglab, o'z hovlisida ochgan **to'rt yillik "savtiya"**, **ya'ni tovush usulli maktabi eski an'anaviy maktablarga mutlaq raqobatda bo'lgan yangi jadid maktabi yuzaga keldi.** Shu o'rinda Munavvar qori jadidchilikni hozirgi tushunchadagi islohotchilik, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlikdan boshladi desak, xato bo'lmaydi. Munavvar qori maktabida diniy va

dunyoviy ilmlar o‘zaro uyg‘unlikda yonma-yon o‘qitildi. O‘quvchilar tezda savod chiqarib ravon o‘qish hamda yozish qobiliyatiga ega bo‘ldilar. Munavvar qori maktabidan andoza olgan jadid maktablari nafaqat Toshkent, balki butun Turkiston, hatto undan tashqarida ham birin-ketin ochilib, tezlik bilan yoyila boshladi.

Munavvar qori birgina maktab bilan cheklanmay, yana bir necha xususiy jadid maktabini ochdi. **U yanada oldinga qadam tashlab, birinchi bo‘lib, ikki yillik “Rushdiya” jadid maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoviy o‘rta maxsus ta’limga asos soldi.** Bu maktab ham juda keng miqyosda boshqa joylarda tez rivojlanib, hatto sovet davrida ham asqotdi. Hatto “Lenin maktabi”, “Muxtoriyat maktabi” deb nomlandi. Maorif taraqqiyotiga qo‘shgan boshqa xizmatlari evaziga Munavvar qori mahalliy sovet hukumatining **1923-yil 7-martdagi e’tirof etilgan qaroriga ko‘ra, “Maorif qahramoni” unvoniga sazovor bo‘ldi.**

Yana bir tarixiy haqiqat shuki, Munavvar qorining “Rushdiya” maktabida juda ko‘p qiyinchiliklar bilan Turkiston general-gubernatorligidan rus tilini o‘qitishga ruxsat oladi. Rus tili bilan birga, diniy va dunyoviy ta’lim, ya’ni ijtimoiy-gumanitar va tabiiy bilimlar chuqur o‘qitildi. Mazkur maktabni bitirganlar xorijiy o‘quv yurtlarida o‘qidilar, mahalla masjidlarida imom, o‘sha davr korxonalar va tashkilotlarida ish yurituvchi kabi mutaxassisliklarda ishlay boshladilar.

Munavvar qorining ikki bosqichli maktabi va boshqa jadid maktablarini ma’rifatga muhtoj xalq, ayniqsa, ilg‘or ruhdagi yangi zamonaviy va muruvvatli boylar qo‘llab-quvvatladi. Munavvar qori Abdurashidxonovning ikki bosqichli jadid maktablari pulli bo‘lgan, har bir bola uchun ota-onasi o‘z imkoniyatiga ko‘ra, ixtiyoriy ravishda 50 tiyindan bir yarim so‘mgacha to‘lov qilishi lozim bo‘lgan. Ammo, xursandchiligidan 3 so‘mdan ko‘p to‘lov qilganlar ham bo‘lgan.



Xullas, jadid maorifining moddiy asosini xalqning o'zi ta'minladi. Munavvar qori jadid maktablari uchun **dastur va darsliklar**ni ham ilk bor o'zi ishlab chiqdi. Masalan, **“Adibi avval” – Alifbo darsligi (1907), “Adibi soniy” (1907) – O‘qish kitobi, “Yer yuzi” (1908) – 3-4 sinflar uchun Geografiya darsligi, “Havoyiji diniya”, “Til saboqlari” (1925) darsliklari, “Tajvid” – Qur‘oni karimni o‘qish qoidalari va “Sabzazor” adabiy to‘plami** va boshqa shu kabilar. Bular qayta-qayta chop etilib, juda keng tarqaldi:

Ammo bu osonlikcha yuz bermadi. Munavvar qori va, umuman, jadidlar o'ta jiddiy ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy kuch bilan to'qnash keldi. Birinchisi, mustamlakachilik siyosati bo'lsa, ikkinchisi, shu siyosatga itoatda bo'lgan mahalliy ulamo va ziyolilar orasidagi ba'zi bir jaholatparastlik bo'ldi.



Aslida, Munavvar qori va boshqa jadidlar islomning sof, ma'rifat va ilm-fan dini ekanligini himoya qilib, ochiq tanqidiy fikrlar bilan jadid matbuotida maqolalar e'lon qildilar. Masalan, Munavvar qori 1906-yil 14-iyunda "Taraqqiy" gazetasida bosilgan "Bizni(ng) jaholat — jahli murakkab" maqolasida "Ko'p dindoshlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabga bermay, ... dunyo va oxirat saodati o'lg'an ilm va maorifdin mahrum qilmoqdan hech bir ibo qilmaslar", deb yozadi<sup>2</sup>.

Munavvar qori, umuman, uning hammaslaklarining asosiy maqsadlaridan biri va, eng muhimi, mutaassiblashib, davr talablariga yaroqsiz bo'lib qolgan xalq maorifini butunlay isloh qilib, yangi zamon talablariga xos, xalq va millat manfaatlariga mos diniy va dunyoviylikka asoslangan boshlang'ich, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini yaratishdan iborat bo'lgan. Bu


---

<sup>2</sup> Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). — Тошкент: Шарк, 2001.

o'rinda Munavvar qori Abdurashidxonovning ishbilarmonlik, tashabbuskorlik va, shuningdek, siyosatdonlik sa'y-harakatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi zamon uch bosqichli milliy ta'lim tizimiga asos solganiga tarix guvoh va bor tarixiy haqiqatdir.

Endi mana shu yerda uning o'ta mustabid kommunistik mustamlakadan ozod bo'lish va milliy taraqqiyotga erishish haqidagi juda muhim tarixiy ikki xulosasini eslash joizdir. Chunki qanday oliy maqsadga qo'l urib, bunga ishonib faoliyat yuritgan bo'lsa, tarix tajribasidan quvvatlandi:

“Butun dunyodagi hurriyatchilar orasida bir so'z bor: “Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olub bo'lmas, faqat qon va qurbon ilagina olub bo'lur”. Mazkur jumlar shu qadar haqiqatki, hazrati Odamdan shu vaqtga qadar hech bir davlat va mamlakatda hurriyatning berilgani tarixda ko'rulmaydur. Balki, har zamon va yerda hurriyat berilmagan, olingan ham ko'p qon va qurbonlar barobari-



nagina olingan” (“Najot” gazetasi, 1917-yil, 26-mart).

*“Endi o‘z holimiz va o‘z tariximizga boqsak, bir vaqtlar Ovrupo vahshiy ekan, biz madaniy edik... So‘ngralari Ovrupo xalqi maorif va madaniyat yo‘lida ishladi, bu holg‘a erishdi; biz tushdik, uxladik, bu holg‘a yetushduk. Bugungacha Ovrupo xalqi osmongacha uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo‘g‘rofiya va tibbiyot o‘qitish-o‘qitmaslik ixtiloflari... davom etadi”* (“Turkiston” gazetasi, 1923-yil, 4-mart).

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘ta mustabid va aksilinsoniy ikki kuch zulmi ostida, millat manfaati va Vatan istiqloli yo‘lida, ziddiyatlarga to‘la murakkab davrda o‘z faoliyatini olib borishiga to‘g‘ri keldi. Buning oqibatida

**1931-yilda 53 yoshida qatag‘on qurboni bo‘lib shahid ketdi.** Uning qadr-qimmatini anglash, faoliyati va merosini o‘rganish, unga armon bo‘lib qolgan milliy davlat mustaqilligi g‘alaba qozonganidan so‘ng, boshqa qatag‘on qurbonlaridan anchagina kech boshlandi.

Munavvar qori ham minglab qatag‘onlar qatorida o‘z qadr-qimmatini milliy istiqloldan so‘ng topdi. Unga oid ko‘pgina maqolalar bilan birga uning asarlari ham chop etildi. 2001-yilda “Xotiralarimdan” asari nashrdan chiqdi<sup>3</sup>.

2003-yilda esa taniqli olim, san‘atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmedov Munavvar qori Abdurashidxonovning “Tanlangan asarlari” ni chop ettirdi<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи: Сотимжон Холбоев. – Тошкент: Шарқ, 2001.

<sup>4</sup> Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2003.

2020-yil 30-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan tarixdagi beqiyos xizmatlari hisobga olinib, Munavvar qori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

Sirojiddin Ahmedov, nihoyat, 2019-yilda Munavvar qori asarlarining ikkinchi, to‘ldirilgan nashrini amalga oshirdi<sup>5</sup>.

---

<sup>5</sup> Абдурашидхонов М. «Мен сендамен». Асарлар (иккинчи, тўлдирилган нaшри). – Тошкент: Info Capital Group, 2019.

# FAOLIYATI





**T**arixiy voqealarga asoslanib shuni aytish lozimki, Munavvar qori Abdurashidxonov milliy uygʻonish — jadidchilik harakatining asosiy yetakchilaridan biri boʻlib, qadim islom

tamadduni mamlakatimizda qayta tiklanishiga katta hissa qoʻshdi. Shaxsan uning oʻzi yangi tamaddunning eng muhim poydevori — hozirgi uch bosqichli milliy taʼlim tizimiga bevosita asos soldi.

Darhaqiqat, bu uch bosqichning birinchisi, toʻrt yillik boshlangʻich va, ikkinchisi, oʻrta maxsus «Rushdiya» maktablarini tashkil etish

bilan birga ularning bitiruv imtihonlarini-da, tantanavor amalga oshirdi. Bu imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalarini, din peshvolarini, ma'rifatparvar saxiy boylarni, shuningdek, taniqli jadid ziyoli va shoirlarini rasman taklif etdi. Masalan, Namanganga — Is'hoqxon to'ra Ibratga yo'llangan «Da'vatnoma»da shunday deyilgan:

*“Hurmatli Is'hoqxon hoji janoblarina!  
1907-yil may oyindan e'tiboran Toshkentda  
Tarnovboshi mahallasida “Xoniya” makta-  
binda talabalarni(ng) yillik imtihoni bosh-  
lanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tav-  
obeingizda bo'lg'on usuli jadidiya maktablari  
mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qil-  
sangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mam-  
nun bo'lur edilar.*

*Muhibingiz Munavvar qori,*

*15-mart 1907-yil”.*



Munavvar qori Abdurashidxonov Toshkentdagi o'zi mudirlik qilgan "Namuna" va "Xoniya" maktablarida bitiruv imtihonlarini o'tkazish uchun Qo'qondan Hamza Hakimzodani ham taklif etgani uning 1916-yilda yozgan xatidan ma'lum. Chunonchi, unda shunday so'zlar bitilgan:

*"Muhtaram janobi oliylarina. Ushbu 1916-nchi yil 7-nchi may (shanba)dan 12-nchi may (payshanba)g'acha har kun erta- lab soat (9) dan kech soat (2) g'acha Tarnovboshi mahallada Mirhodi hoji havlilarida "Namuna" va "Xoniya" maktablarida o'quvchilarni(ng) sinov imtihonlari bo'latur. Siz hurmatludan o'tinub iltimos qilamizki, barcha tavobe'laringiz ila marhamat qilub zikr etilgan kunlarning har birida imtihon majlisina tashrif buyurib, muallim va shogirdlarni sarafroz buyursalar edi.*

*Mudir: Munavvar qori.*



*Muallimlar: Mullo Murodxo'ja, Abdusame' qori, Eshonxo'ja".*

Shuni ta'kidlash kerakki, bu imtihonlarda o'zini a'lo darajada namoyon etgan qobiliyatli yoshlarga muruvvatli boylar pul mablag'lari bilan rag'batlantirish holatlari ham bo'lgan.

Munavvar qori va uning qo'l ostidagi maslakdoshlari yoshlarni jadid maktablarida o'qitish barobarida ularning moddiy ta'minlab, kelajakda oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishi uchun ham zamin hozirladilar. Shu o'rinda **Munavvar qori Abdurashidxonovning sa'y-harakatlari bilan Toshkentda 1909-yilda "Ko'mak", 1913-yilda "Doril ojizin"** xayriya jamiyatlari ochilib, yoshlarni xorijga o'qishga yuborish uchun va boshqa muhtojlarga xayriyalar berilishi mutlaqo yangi tarixiy voqea bo'ldi.

"Ko'mak"dan namuna olgan Buxoro jadidlari ham 1910-yilda "Tarbiyayi atfol" xay-

riya jamiyatini tashkil etdilar. Toshkentdag  
ikki xayriya jamiyati rasman oshkora va faol is  
olib bordi. "Tarbiyayi aftol" esa amirlikdag  
vaziyat bois maxfiy faoliyat olib bordi.

Jadidlarning ma'naviy otasi Munavva  
qori Abdurashixonov o'zining "Toshkentd  
musulmon jamiyati" nomli maqolasida "Dor  
ojizin" haqida shunday deb yozadi: *"Toshkent  
jamiyati bu yil butunlay boshqa tusga kirdi.  
Uyqudan uyg'onib, ko'zlarini uqalab, atrof  
ga nazar sola boshladi. Qonunida (nizomida  
— S.X.) zikr etilgan moddalardan birin-bi  
rin foydalanmakka shuru' qildi. Boshlab b  
necha yildan beri qaror berilib-da ochilma  
yotgan "Doril ojizin" rasman ochilub, bi  
necha miskin va ojizalarni tarbiyaga oldi. Bi  
necha maktab va madrasalarga yuz so'm va  
ikki yuz so'mlab ionalar berdi. Va bir nech  
beva va bechoralarga oylik ionalar bermoqd  
va oltmish qadar faqir va yetim bolalarni*



*turli maktablarda o'qitib, tarbiya qilib tur-makdadur*"<sup>1</sup>.

“Ko‘mak”ning Nizomida “Jamiyat davlat, jamoat va shaxsiy o‘quv yurtlariga moddiy yordam beradi: o‘rta va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quvchilar uchun stipendiyalar ta‘sis etadi” deb ko‘rsatilgan<sup>2</sup>.

Buxorodagi “Tarbiyayi atfol” Nizomida esa quyidagilarni o‘qiymiz: “...Jamiyat Turkiston, ayniqsa, Buxoroda bilim tarqatish va maktablar ochish maqsadida tashkil etilgan... Jamiyatning birdan-bir maqsadi har yili Turkiston va Buxorodan Konstantinopol (Istanbul) maktabida o‘qish uchun ma‘lum miqdorda o‘quvchilarni yuborib turishdan iborat”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Тошкент: Шарк, 2001. 84-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви (ЎЗР МДА), 461-жамғарма, 1-йиғмажилд, 116-иш, 69-70-бет.

<sup>3</sup> Аршаруни А. Габидуллин Х. Очерки панисламизма и пантуркизма в России. – Казан, 1931. – стр. 135.

Munavvar qori Abdurashidxonov juda murakkab davrda qarama-qarshiliklar avj olgan, millat va Vatan taqdiri katta xavf ostida qolgan sharoitda xilma-xil sohalarda faoliyat yuritdi va milliy uygʻonish uchun jidd-u jahd qildi. U nisbatan qisqa vaqt ichida millat, jamoat, siyosat, madaniyat va maʼrifat arbobi darajasiga koʻtarildi. Bu bilan nafaqat Turkistonda, balki undan ham keng miqyosda nom qozondi. Shu bilan birga, tarixda aslo oʻchmas kelajak avlodlarga namuna boʻlarli darajadagi kattagina va qimmatli meros qoldirdi. Bularni hali toʻla oʻrganib oʻzlashtira olganimiz yoʻq.

Jadidlar koʻp yillar mobaynida chor Rossiyasi davrida mutaassiblashib dunyo taraqqiyotidan orqada qolgan milliy musulmon ziyolilar (ulamo, qori, mulla, madrasa talabalari, maktab va madrasa muallimlari)dan ajralib chiqqan, oʻzligini anglagan, millat va Vatan dardini oʻz dardi deb bilgan diniy va dun-

yoviy dunyoqarashga ega bo'lgan mutlaqo yangi ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar edi. Ularning bosh maqsadi, millat va Vatanni mutassiblik hamda Rossiyaning ikki — chor va kommunistik mustamlakasi iskanjasidan ozod etib, boy-badavlat qilib, taraqqiy ettirish bo'ldi. Buning uchun jadidlar eski kurash usullari — qo'zg'olon va g'alayonlarni inkor etgan holda madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy, islohotchilik, tinch demokratik va uyushgan kurashni avj oldirdilar.

Natijada, Vatanni to'la ozod etishning iloji topilmagan bo'lsa-da, mustamlakachilikka madaniy-ma'rifiy taraqqiyot bilan jiddiy zarba berildi, eng muhimi, yuqorida aytib o'tilgan Milliy Uyg'onish hodisasi ma'lum ma'noda qaror topdi. Bu tarixiy haqiqat kommunistik mustamlaka — sovet davrida g'arazli maqsadda inkor etilib kelindi. Jadidchilik reaksiyon burjua oqimi deb ko'rsatildi. Jadidlar esa sav-

do burjuasi, xalq dushmani sifatida qoralanib jismonan qatag'on qilindi.

Darhaqiqat, Munavvar qori ko'p tarmoqli jadidchilik harakatining barcha sohalari shakllanib rivoj topishida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lib tarixda qoldi.

Munavvar qorining «Bizni(ng) jaholat — jahli murakkab» nomli maqolasi «Har millatning maktabi», «Har millat avlodini tarbiyalash» degan so'zlar bilan boshlanadi. Shu bilan birga, u «Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!!»<sup>4</sup> deb to'g'ridan-to'g'ri millatga murojaat qiladi. Zukko olim Begali Qosimovning ushbu dil so'zlari o'ta ibratli: *“Jadidchilikning mohiyatini millat va Vatanni anglashdilar ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgar qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Un*

---

<sup>4</sup> Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи: С.Аҳмедов. — Тошкент: Маънавият, 2003. 142-145-бетлар.

*o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta‘bir etishdan tahlil tomon borib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e‘tibor berdilar”.*

Jadidlar millat va Vatanni ozod etib, taraqqiyotga yetaklash uchun siyosiy, madaniy-ma‘rifiy kuch sifatida kurashdi. Buyuk millatparvar va millatning ma‘naviy otasi darajasigacha ko‘tarilgan Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zining xotiralarida yozishicha, jadidlarning bosh shiori va maqsadi o‘ta teran mazmunli ushbu uch so‘zdan iborat bo‘lgan: **OZODLIK, TENGLIK VA ADOLAT**<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи: С.Холбоев. – Тошкент: Шарқ, 2001. 51-бет.



Shuni alohida aytish lozimki, jadidlar, ayniqsa, Munavvar qori tariximizni juda teran anglab, undan saboq va ma'naviy kuch-quvvat olgan. O'zlaridan oldin yuz bergan ikki buyuk Uyg'onish — Renessans davrini juda chuqur bilgan va ularga suyangan.

Fidoiy jadidlar mustabid mustamlakachilar bilan mahalliy mutaassiblarning ikki tomonlama qarshiliklarini matonat bilan yengib, qisqa davr (30-40 yil)da Uchunchi milliy uyg'onish — Renessansning quyidagi asoslari (poydevori)ni yaratdi. Bularda Munavvar qori Abdurashidxonovning hissasi behad katta bo'ldi:

— jadidchilik harakatining tub asosini din bilan dunyoviylik o'rtasidagi o'zaro mo'tadil munosabat qonuniyati tashkil etdi;

— to'rt yillik boshlang'ich, ikki yillik "Rushdiya" o'rta maxsus va oliy ta'limlardan iborat uch bosqichli yangi milliy ta'lim tizimi yuzaga keldi;

— diniy va dunyoviy dunyoqarashni yaxshi o'zlashtirgan yangi milliy ziyolilar paydo bo'ldi;

— yangi milliy adabiyot, matbuot, teatr va bosma kitoblar dunyoga keldi;

— kommunistik mustamlakaga qarshi uyushgan milliy-ozodlik harakati rivojlandi;

— har xil ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy tashkilot hamda jamiyatlar shakllanib, samarali faoliyat yuritdilar;

— millat yoshlarini rivojlangan mamlakatlarga yuborish tartibi paydo bo'ldi.

Xullas, jadidchilik harakati tarixda o'xshashi yo'q, XIX asr oxiri — XX asr boshidagi buyuk hodisa edi. U garchand tub milliy xarakterga ega, o'z millati manfaati va taraqqiyoti uchun kurashgan bo'lsa-da, birinchidan, tor doiradagi milliylikdan mutlaqo xolis, millatlararo birlik va bag'rikenglik, umuminsoniy mazmun-mohiyat kasb etdi. Mana shuning

uchun ham u, ikkinchidan, barcha millatlar manfaatlari va jamiyat hayotining hamma jabhalarini o'z ichiga qamrab olgan ko'p qirrali milliy harakat bo'lib, tarixda hech o'chmas va katta iz qoldirdi. Uchinchidan, bu iz esa ko'lami keng va noyob bo'lganligi bilan ham Turkiston aholisini ko'p asrlik mutaassiblik botqog'i — ijtimoiy g'aflat uyqusidan uyg'otdi. To'rtinchidan, bu davrda turkiy millatlar jadidlar tufayli faqat o'zliginigina emas, balki dunyo millatlari va xalqlarini ham angladi va tanidi, ular bilan o'zaro hamkorlik hamda manfaatdorlik rishtalarini bog'lab, taraqqiyot sari ongli ravishda dadil qadam tashlay boshladilar.

Buni, avvalo, jadidlarning o'zlari dunyo bo'ylab, sayohat-u savdo ishlarini yo'lga qo'yganlari va rivoj topgan o'zga millatlar-u o'zga mazhab hamda dindagilarning madaniyati, ta'lim tizimi, ilm-fani va texnikasining

ahamiyatini anglagani va millatning yuzlab farzandlarini bunga safarbar etgani isbotlab turibdi.

Bulardan tashqari, jadidlar ancha mustahkam ildiz otib, taraqqiyotiga to'siq bo'lib kelayotgan mutaassiblikning mohiyatini ochib tashladi. Bu esa din peshvolari va xalq orasidagi mutaassiblarning taraqqiyparvar jadidlarga nisbatan qarama-qarshiliklarini keskin kuchaytirdi. Bundan Rossiya mustamlakasi ma'muriyati hamda mafkurachi missionerlari, umuman, chor va kommunistik mustamlakachilar o'z maqsadlari yo'lida juda ustalik bilan foydalandilar. Shularga qaramay, jadidlarining jasorati bilan millat va jamiyatda yangi madaniyat — jadid madaniyati paydo bo'ldi. Bu madaniyatning o'ziga xos va mos mazmuni din bilan dunyoviylik o'rtasidagi mo'tadil munosabat qonuniyatiga asoslanganligida yaqqol ko'rindi. Shu bilan birga, millatda mustaqillik

uchun milliy-ozodlik kurashiga jasorat, harakat shakllandi, ilm-fanga ishtiyoq uyg'ondi. Milliy adabiyot, ta'lim-tarbiya tizimi yangilandi. Jadid milliy matbuoti, teatri, kutubxonasi, maktabi, nashriyoti, xayriya jamiyatlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalari va siyosiy partiyalari shular jumlasidandir.

Ammo ming bor afsus va nadomatlar bo'lsinki, g'ayriinsoniy kommunistik mustamlaka jadidchilik harakatini ayni gullagan chog'ida tugatdi. Jadidlarni qirg'inbarot qildi. Mana birgina misol: 1929-yilda Munavvar qori Abdurashidxonovning 87 jadiddan iborat eng sara guruhi hibsga olinib, 1931-yilda qatag'on qilindi.

Darhaqiqat, jadidchilik harakati — Milliy uyg'onishning o'ziga xos, olamshumul tarixiy ahamiyati shunda bo'ldiki, bu davrda millat ongi va tafakkuri yangilandi. Millatdagi mutaassiblik to'la barham topmasa-da, uning

ildiziga bolta urilgan. Mutlaqo yangi ziyolilar tabaqasi — jadidlar va ularning izdoshlari paydo bo'ldi. Bular esa millatga yetakchilik (rahbarlik) qilishdek o'ta buyuk va mas'uliyatli hamda sharaflı, shu bilan birga, juda murakkab tarixiy-milliy ahamiyatga molik ishni aql chirog'i bilan anglab, mutaassiblik hamda mustamlakachilikka qarshi kurashda katta jasorat ko'rsatdi. Bu esa millatning kelajak avlodi uchun ibrat namunasi va suyanch nuqtasi bo'lib tarixda qoldi.

Milliy uyg'onish — jadidchilik harakati davrida tarixan yana bir o'ta muhim milliy jarayon jonlandi. Bu, eng avvalo, jadid ziyolilarining o'zlarida hamda o'sha davr yoshlarida millat va Vatanga bo'lgan muhabbat, burch va mas'uliyat hissi yanada yuksak darajaga ko'tarilganligida bo'ldi. Gap shundaki, shu paytda, mutaassiblik kuchayishi sababli tanazzul va mustamlakachilikni taqdir deb tan olish

bilan birga, unga nisbatan ko'nikma hosil qilishdek mayllar ham yo'q emas edi. Ba'zi bir mutaassiblar mustamlakachilikni taqdir deb noto'g'ri talqin qildi. Bu masalani juda to'g'ri anglagan jadidshunos professor Begali Qosimov shunday deb yozadi: *"Ayni paytda, bu harakat (jadidchilik. — S.X.) millatni ham tarbiyalay bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi"*<sup>6</sup>. Bu, birinchidan.

Ikkinchi bir tomondan esa, bosqinchi kelgindilar va ularning missioner mafkurachilari millat va xalqimizga manfur mustamlakachilik mafkura-ko'nikmasini juda jadal singdirishga harakat qilayotgan edi. Bularning biri bosqinchilar o'zlarining barcha ustunliklari, ya'ni ilmiy-texnikaviy, tibbiy va harbiy kuch-qudrat-

---

<sup>6</sup> Qosimov B. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Т.: Маънавият, 2002. 4-бет.

larini doimo ko‘z-ko‘z qilib turishi bo‘lsa, ikkinchisi, beayov shafqatsizliklar bilan, turli bahonalar bilan qirg‘inlar uyushtirib, millatda qo‘rquv, itoatkorlik psixologiyasi va ko‘nikmasini tarbiyalashga urinish bo‘layotgan edi. Uchinchidan, va eng xavflisi, bosqinchilar millatning barcha qadim tarixiy-madaniy yutuqlarini inkor etish bilan, uni o‘z ma‘naviyati, buyuk tarixidan ajratib tashlab, o‘zligi va tafakkurni o‘zgartirishni maqsad qilib olgan edi.

Bunga javoban taniqli olim Shuhrat Rizaev ta‘biri bilan aytadigab bo‘lsak, “o‘ttiz yil nari-berisi”<sup>7</sup>da butun Turkiston milliy uyg‘onish hodisasini dunyoga keltirdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zining “Yalqovlik yovimizdir” degan jadid maktab bolalariga bag‘ishlangan she‘rida ularga qarata shunday deydi:

*Jannat kabi go‘zal yurtning yig‘lab*

*sendan ish kutadir,*

<sup>7</sup> Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарк, 1997. 130-бет.



*Senda ko'rgan ishsizlikni, hasrat chekib,  
qon yutadir.*

*Tur o'ringdan, och ko'zingni,  
Ayt yovingga so'ng so'zingni*<sup>8</sup>.

Munavvar qori yana bir “Bizni(ng) jaholat — jahli murakkab” degan maqolasida shunday deydi: “*Ey vatandoshlar! Diqqat nazar ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermoqdin maqsudi... zaruriyati dunyoviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix... kabi foydalik ilmlarni bildirmoq. Boshqa viloyatlarda xat bilmaydurg'on kishi yuzdan o'n o'lsa, Turkiston viloyatida yuzdan to'qsondir*”.

Abdurauf Fitratning asarlarida ham yurtparvarlik va yoshlarning vatan oldidagi burchi, vazifasi juda yuksak darajala madh etilgan. Uning “Yurt qayg'usi” deb nomlangan uch turkum asari alohida ahamiyatga ega. Ular-

---

<sup>8</sup> Абдурашидхонев М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи С.Ахмедов). — Т.: Маънавият, 2003. 63-бет.

ning birinchisida adib, Vatanning mustamlaka ayanchli holatidan bag'ri-dili ezilib, u bilan *"Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydur? Nechuk kunlarga golding?"* deb hasratlashadi-da, uning qadim buyuklik qudrati qayta tiklanishiga umid bildirib shunday deydi:

*"Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech bir yo'qolmamishdur"*<sup>9</sup>.

Ikkinchi she'rida esa, Abdurauf Fitrat Turkistonni bosh-oyoqlari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqaga botgan, baqirarg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmagan bir xotun — ayolga o'xshatib, uni shu holatga keltirgan bosqinchilarni la'natlaydi: *"O'lim sening o'limingni istaganlarga, nafrat seni ko'mgani kelganlarga!"*

<sup>9</sup> Турон тарихи (Туплам). — Т., 1992. 7-бет.

Abdurauf Fitrat mazkur turkumning uchinchida Amir Temur sagʻanasi oldiga kelib, uning ruhi poklaridan Vatanni ozod qilish uchun yordam soʻraydi: *“Ey arslonlar arsloni! Menim yoziqlarimdan oʻt, menim qoʻlimni tut, belimni bogʻla, muqaddas fotihangni ber!”*

Munavvar qori Abdurashidxonovning yetakchiligida jadidchilik harakati oʻzlaridan oldin yuz bergan ikki buyuk olamshumul Uygʻonish — uchinchi Renessans poydevorining eng muhim asoslarini yaratgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Oʻrni kelganda yurtboshimizning 2020-yil 30-sentabrdagi “Oʻqituvchi va murabbiylar — Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” deb nomlangan maʼruzasida jadidlar hamda Munavvar qoriga bergan yuksak darajali baholari shu yerda toʻla-toʻkis keltirish joizdir:

“Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun fidoyi umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘af-lat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” (Imom al-Buxoriy) hikmatini hayotiy e‘tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma‘rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin deb hisobladilar.

*Ming afsuski, jadidlar o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-u malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi.*

*Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi*

*va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar*"<sup>10</sup>.

Bular jadidchilik harakati va uning oldingi saflarida bo'lgan ilg'or fidoyi jadidlarga yuksak minbardan davlat miqyosida berilgan o'ta adolatli va haqqoniy, tarixiy baho bo'ldi. Ayniqsa, shu kuni Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiyalar Prezidentimizning farmoni bilan yuksak darajada qadrlanib, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlanishi nur ustiga nur bo'ldi.

Bu ulug' zotlarni kommunistik mustamlaka — sovet hokimiyati mutlaqo nohaq qoralab, "xalq dushmani" deb qatag'on qilib badnom qilishdi.

Buning asoratlariga barham berilishi, aniqrog'i, Munavvar qori kim bo'lganligini to'g'ri

<sup>10</sup> "Адолат" газ., 2020 йил, 1 октябр.



anglash ancha mushkul keldi. Va, nihoyat, Shavkat Mirziyoyev bunga uzil-kesil barham berib, tarixiy haqiqatni to‘la-to‘kis tikladi, adolatni qaror topdirdi. Munavvar qori Abdurashidxonov o‘z davrining yetuk mutafakkiri, siyosatdoni va tadbirkor ishbilarmoni edi. Shuning uchun u juda murakkab tarixiy muhit va sharoitlarning mas’uliyatini to‘la-to‘kis anglagan holda millat va Vatanga daxldor tarixiy masalalar bilan ongli ravishda mashg‘ul bo‘ldi. U o‘z faoliyatining samarasi o‘laroq ko‘p qirrali, ya’ni turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalarni chuqur o‘zlashtirgan buyuk tarixiy shaxs va arbob sifatida Turkistondagina emas, undan ham keng miqyosda tanildi.

Shuni alohida aytish lozimki, Turkiston jadedchilik harakatining asoschisi va bosh rahnamosi, buyuk mutafakkir va ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘ldi. Munavvar qori uning eng va ishonchli hammaslagi bo‘lib,

undan ko‘p narsani o‘rgandi. Mahmudxo‘ja Munavvar qorining ikki yillik “Rushdiya” o‘rta maxsus ta’limi maktabiga 1901-yildayoq yuksak baho bergan edi. O‘zining “Oyina” jurnaliga shu yili Turkistonda milliy oliy ta’lim paydo bo‘lishi haqida tushgan savolga mana bunday javob beradi: “Toshkentdagi Munavvar qorining maktabi mana shunday oliy tahsilga zamin bo‘lishi mumkin...”

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yilda jadidchilik harakatining dushmanlari tomonidan qatl etilganidan so‘ng Munavvar qori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining bosh rahbari va yetakchisi sifatida juda dadil faoliyat yuritdi. Va, oxir-oqibat, u ham jadidchilik harakati milliy mustaqillikning ashaddiy dushmani kommunistik mustamlakaning qurboni bo‘ldi.

Xullas, Munavvar qori Abdurashidxonovning zahmatlari bilan Turkistonda milliy



uygʻonish harakati paydo boʻldi, erishgan yutuqlari bilan salmoqli hissa qoʻshdi. Bu toʻgʻrida uning zamondoshlari koʻpgina fikrlarini yozib qoldirgan. Shulardan biri Munavvar qorining “Rushdiya” maktabini bitirib, Germaniyada oʻqib chorvachilik boʻyicha yirik olim boʻlib yetishgan professor, doktor Ibrohim Yorqinning “Turkistonda milliy uygʻonish harakatlari va Munavvar qori” nomli maqolasida bor haqiqatni toʻla koʻrsatib, shunday deydi:

*“...Turklik shuurining uygʻonishi bilan bogʻliq masalalar oʻrganilayotgan vaqtda, eng avvalo, uzoqni koʻra olgan, maʼrifatparvar rahbar Munavvar qori va uning atrofida uyushgan maslakiy birodarlarini koʻramiz!? Munavvar qori Turkistonning siyosiy mustaqil davlat qurish gʻoyasining qaror topishida koʻzga tashlanishi mumkin boʻlgan... uzoqni koʻra olgan bir ishonchli dohiy edi”* («Turk kulturu» jurnali, 1966, 4-son).

**MAXFIY MILLIY OZODLIK KURASHI MAYDONIDA.** Shuni oldindan aytish mumkin. Munavvar qori juda ong'li ravishda butun faoliyatini Vatanni chorizm, kommunistik mustamlaka zulmidan ozod etish uchun milliy ozodlik kurashiga baxshida etib, oxir-oqibat, o'z jonini qurbon qildi. Chorizm mustamlakasi zulmi o'ta mustabid va shafqatsiz bo'ldi. Shuningdek, 1916-yilda mardikorlikka olishga qarshi ko'tarilgan ommaviy qo'zg'olonda ham xalq talafot ko'ra boshladi. Bundan xalqni saqlash uchun Munavvar qori Abdurashidxonov va uning hammaslamlari o'zaro kelishib, taniqli huquqshunos va yetakchi jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev boshchiligidagi jadid vakillarini Sankt-Peterburgga bordi. Ular Rossiyaning IV Davlat dumasida o'z xalqini himoya qilib chiqadilar. Shundan so'ng podsho hukumati mardikorlikka olishni biroz kechiktirishga majbur bo'ladi.

Turkistonga esa ahvol bilan tanishish uchun A.F. Kerenskiy boshliq Duma vakillari keladilar. Ular Andijon shahrida ham bo'ladilar.

Andijonda xalq vakillari 1916-yil avgustda Duma deputatlari bilan uchrashib, ularning oldiga xalqning haq-huquqini himoya qilish bilan birga universitet ochishga yordam berish masalasini ham qo'yadilar. Ammo, Kerenskiy bunga aniq javob berishdan o'zini tiyadi. Shu harakat sabab Turkistonda mardikorlikka olish bo'yicha rasmiy qo'mita tuziladi. Munavvar qori uning rais o'rinbosari etib saylanadi. Uning rahbarligida qo'mita a'zolari xalq orasiga kirib qarshilik qilmaslikni tushuntirish orqali qirg'inni kamaytirishga muvaffaq bo'ladi. Buning uchun mardikorlarga Rossiyadan siyosiy ongi o'sib qaytishi anglatiladi. Shuningdek, Munavvar qori mardikorlarni tinch-osoyishta kuzatish marosimlarini tashkil etadi. Haqiqatan ham, ko'pgina mardikorlar

keyinchalik kommunistik bosqinga qarshi ongli kurashda siyosiy faollik ko'rsatadi.

Munavvar qori Abdurashidxonovning "Namuna" maktabini birinchi bo'lib bitirgan Afandizoda keyinchalik shunday yozgan edi: *"Munavvar qori Turkistonni istilo etgan dushmanga qarshi kurashning yagona yo'li ta'lim deb bildi. Xalqni isyonga chaqirmadi. "Bizning g'alabamizning birinchi sharti va asosi bilim va texnikadir", degan fikrlar bilan biz, yoshlarga tahsilni chet elda davom ettirish kerakligini ta'kidlar edi"*.

Bolshevik kommunistlar rus podshosini taxtdan ag'darib, hokimiyatni qo'lga olgach, V.I.Lenin "Rossiya xalqlari haq-huquqlari deklaratsiyasi"ni e'lon qilganidan so'ng boshqalar qatori Munavvar qori ham milliy demokratik hokimiyat uchun kurashda faol yetakchilardan biri bo'ldi. U, hatto, o'z sherigi bilan "Turon" jamiyati yo'llanmasi asosida Finlyandiyaga

borib, “Yosh finlar”ning demokratik kurash tajribasini o‘rganib kelgani ma’lum. Xullas, u sho‘ro Rossiyasi tarkibidagi Turkistonda milliy avtonom (muxtor) demokratik hokimiyat o‘rnatish uchun Turkiston muxtoriyati tashkiliy qo‘mitasi hay’ati tarkibida katta jonbozlik bilan harakat qildi. Bo‘lajak Turkiston avtonomiya-si haqida Markaziy Sho‘ro hokimiyati boshlig‘i V.I.Leninga uning deklaratsiyasini eslatib turkistonliklar nomidan maxsus telegramma yuborilishida yetakchilik qildi. Ammo, bunga Lenin javob bermadi. Buni shu paytdagi siyosiy vaziyatni to‘g‘ri his etgan Munavvar qori qirg‘in xavfini oldindan sezib, Qo‘qonda-gi qurultoyda muxtoriyat harakatini to‘xtatish taklifi bilan chiqadi. Shu boisdan, u Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga kiritilmaydi. Oradan 72 kun o‘tgach, Qo‘qon shahri va Turkiston muxtoriyati Leninning ko‘rsatmasi bilan qonga botirildi. Shahar vayrona bo‘ldi,



10 000 begunoh aholi qirib tashlangani tarixdan ma'lum.

Shundan so'ng millat va ozodlik fidoyisi Munavvar qori millatga yordam berish maqsadida 1918-yilda bolshevik (kommunistik) partiya safiga kiradi. Biroz vaqt Toshkent eski shahar musulmonlari firqasi bo'limini boshqaradi. Maqsad partiya a'zolari sonini ko'paytirib, xalq manfaatini himoya qilish bo'ldi. Buning uchun "Birlik" uyushmasini tuzib, partiyali va partiyasizlarni ham birlashtirish harakatiga yetakchi siyosiy rahbar darajasida faoliyat yuritdi. Shu paytlarda "Birlik" qoshidagi "Izchilar" nomli musiqa orkestri a'zolari ko'chalardagi namoyishlar va maxsus yig'inlarda "Yashasin Munavvar qori! Yashasin millat!" deb ashulalar aytdi. Bu Munavvar qori haqiqatan milliy ozodlik kurashining haqiqiy yetakchisiga aylanganini isbotlovchi muhim tarixiy hodisa ekanini bildiradi.

borib, “Yosh finlar”ning demokratik kurash tajribasini o‘rganib kelgani ma’lum. Xullas, u sho‘ro Rossiyasi tarkibidagi Turkistonda milliy avtonom (muxtor) demokratik hokimiyat o‘rnatish uchun Turkiston muxtoriyati tashkiliy qo‘mitasi hay’ati tarkibida katta jonbozlik bilan harakat qildi. Bo‘lajak Turkiston avtonomiya-si haqida Markaziy Sho‘ro hokimiyati boshlig‘i V.I.Leninga uning deklaratsiyasini eslatib turkistonliklar nomidan maxsus telegramma yuborilishida yetakchilik qildi. Ammo, bunga Lenin javob bermadi. Buni shu paytdagi siyosiy vaziyatni to‘g‘ri his etgan Munavvar qori qirg‘in xavfini oldindan sezib, Qo‘qonda-gi qurultoyda muxtoriyat harakatini to‘xtatish taklifi bilan chiqadi. Shu boisdan, u Turkiston muxtoriyati hukumati tarkibiga kiritilmaydi. Oradan 72 kun o‘tgach, Qo‘qon shahri va Turkiston muxtoriyati Leninning ko‘rsatmasi bilan qonga botirildi. Shahar vayrona bo‘ldi,

10 000 begunoh aholi qirib tashlangani tarixdan ma'lum.

Shundan so'ng millat va ozodlik fidoyisi Munavvar qori millatga yordam berish maqsadida 1918-yilda bolshevik (kommunistik) partiya safiga kiradi. Biroz vaqt Toshkent eski shahar musulmonlari firqasi bo'limini boshqaradi. Maqsad partiya a'zolari sonini ko'paytirib, xalq manfaatini himoya qilish bo'ldi. Buning uchun "Birlik" uyushmasini tuzib, partiyali va partiyasizlarni ham birlashtirish harakatiga yetakchi siyosiy rahbar darajasida faoliyat yuritdi. Shu paytlarda "Birlik" qoshidagi "Izchilar" nomli musiqa orkestri a'zolari ko'chalardagi namoyishlar va maxsus yig'inlarda "Yashasin Munavvar qori! Yashasin millat!" deb ashulalar aytdi. Bu Munavvar qori haqiqatan milliy ozodlik kurashining haqiqiy yetakchisiga aylanganini isbotlovchi muhim tarixiy hodisa ekanini bildiradi.



1919-yil martda ilk bor Rossiya Kommunistik bolsheviklar partiyasi — RKP (b)ning Turkiston Musulmon byurosi — “Musbyuro” tashkil etiladi. Unga Turor Risqulov rais, Munavvar qori va boshqalar a’zo etib saylanadi. Partiyaning bu yuqori organida mustaqil faoliyat yuritib, mahalliy xalq manfaatini demokratiya asosida himoya qila boshlaydi. Buning uchun Turor Risqulov, Munavvar qori va boshqalar millatchilikda ayblanib ishdan olinadi. 1920-yilda Munavvar qori Buxoro sho’ro hukumatiga yordam berish niqobi ostida surgun qilinadi. Shunda Abdurauf Fitrat uni quchoqlab, *“Biz bunday inqilobni xohlama-gan edik. Rusiyada bir balo bosh kutardi. Bu bolsheviklar balosidir”* deb ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi. 1921-yilda Munavvar qori chaqirib olinib, davlat to‘ntarishida aylanib qamoqqa olinadi. Bunga qarshi birlikchilar ko‘chada namoyish uyushtirib, uni ozod etilishini talab

qiladi. Shu namoyishlardan keyin Munavvar qori Abdurashidxonov ozod qilinadi.

Ammo partiyaviy tazyiq va maxfiy kuzatuv kuchayadi. Shundan so'ng Munavvar qori kommunistik partiyadan o'z xohishi bilan chiqib shunday deydi: *“Men o'zimni o'zbek xalqim uchun foydali hisoblaganim uchun kommunistik partiyaga kirdim, agar mening xalqim uchun qaysi bir partiyaga kirish lozim bo'lsa, men o'shanga o'taveraman”*.

Munavvar qori o'z millati va xalqi manfaati yo'lida Turkiston Maorifi komissarligi turk sho'basi ish yurituvchisi (1918), Toshkent eski shahar maorifi inspektori (1918), Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi a'zosi (1919), Turkiston Maorif xalq komissarligi vaqf bo'limi boshlig'i (1920), Turkiston Maorif xalq komissariyati kollegiyasi a'zosi (1923) va boshqa sohalarda faoliyat yuritdi. Oxir-oqibat, barcha lavozimlardan hayda-

lib, 1928-1929-yillarda uyda o'tirib qolgach, qo'lqop va paypoq to'qib tirikchilik qiladi. Bu paytda umr yo'ldoshi La'zixon tibbiyot bilim yurtida o'qir edi.

1928-yilning boshlarida SSSR Xalq Komissarlari qoshidagi Siyosiy boshqarmaning O'rta Osiyodagi muxtor vakilligi bo'limi boshlig'i Belskiy Munavvar qorini chaqirib, jadidchilik harakati haqida to'liq ma'lumot berishni talab qiladi. Shundan so'ng u, o'zi yozishicha, og'ir sharoitda bo'lsa-da, tarix va kelajak avlodga saboq bo'larli ma'lumot qoldirish hamda siyosiy mavqeni yaxshilash umidida jadidchilik harakati haqida u paydo bo'lgandan Fevral inqilobigacha, undan Oktabr to'ntarishigacha va sho'ro davridan iborat uch qismli qilib yozish uchun reja tuzadi. Buni Belskiy ma'qullaganidan so'ng o'z xotiralarini yoza boshlaydi-da, undan moddiy yordam so'rab sho'roga qilgan xizmati uchun nafaqa talab qiladi, lekin hech bir natija bo'lmaydi.

Reja bo'yicha birinchi qism to'la yozilib, ikkinchisi oxirlayotganida, 1929-yil 6-noyabrda Belskiy ularni olib, Munavvar qorining uyida tintuv o'tkazadi va "xalq dushmani" degan nohaq ayblov bilan uni qamoqqa oladi. Bundan tashqari, yana jami 87 kishi "Munavvar qori guruhi" nomi ostida xalq dushmani sifatida qamoqqa olingan edi. Ular Toshkentda tergov qilinib, Moskvaga olib ketiladi. 1931-yil 25-aprelda ular ustidan hukm chiqariladi va 15 tasi Munavvar qori bilan birga otuvga hukm qilinadi. Qolganlari sovuq o'lkalarga uzoq muddatlarga surgun qilinadi. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, jami 271 ta sobiq ma'rifatparvar jadid qatag'on qilingan.

Munavvar qori qamoqxonada boshqalardan ajratilib, alohida xonada saqlangan va undan xotiraning uchinchi qismini yozishni talab qilishadi. Shu qismning Munavvar qorining GPUdagi "delo" sida ruscha tarjiması mavjud.

Bu “delo”ni kamina o‘zbekchaga ag‘darib 2001-yilda ilk bor kitob holida chop ettirdi<sup>11</sup>. Asl nusxasini esa, Sirojiddin Ahmedov Munavvar qorining “Tanlangan asarlar”i bilan birgalikda 2003-yilda e‘lon qildi<sup>12</sup>. Xotiralarning dastlabki ikki qismi hali topilmadi. Ularda Milliy uyg‘onish — jadidchilik harakatining tarixning eng asl qaymog‘i aks ettirilgan bo‘lsa kerak.

Munavvar qori Abdurashidxonov Qo‘qon bo‘yoq fojiasidan so‘ng aksilsho‘ro maxfiy milliy siyosiy tashkilotlarni tashkil etib, ularni boshqardi. Shu o‘rinda “Ittihodi taraqqiy”, “Ittihodi milliy” va “Milliy istiqlol”larning faoliyati e‘tiborga molikdir. Bular, aslida, bir tashkilot bo‘lib, kommunistik qatag‘onchilarni chalg‘itib undan himoyalash maqsadida nomlari bi-

<sup>11</sup> Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). — Тошкент: Шарк, 2001. 127-бет.

<sup>12</sup> Абдурашидхонов М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи С.Аҳмедов). — Т.: Маънавият, 2003. 303-бет.

rin-ketin o'zgartirilib, rahbarlari ham almashtirilib turilgan. Ularni Munavvar qorining o'zi maxfiy ravishda boshqarib borgan.

“Ittihodi taraqqiy” jamiyati turkiyalik muhojirlar Usmonbek va Haydar Shavqiy, toshkentlik Munavvar qori va yana bir toshkentlik, Samarqanddan Mahmudxo‘ja Behbudiy, turkmanlardan Xon Yavmudskiy, qozoqlardan bir kishi, ya'ni jami yetti fidoyi tomonidan Toshkentda tashkil etildi. Tashkilotning moddiy asosini ularning o'z mablag'lari va unga a'zo bo'lganlarning o'z badallari tashkil etgan.

Tashkilot dasturini Usmonbek bilan Haydar Shavqiy turk tilida yozdi. Munavvar qori uni o'zbek tiliga ag'dardi. Shundan so'ng bu dastur 1917-yil avgustda Munavvar qorining uyida bo'lgan maxfiy yig'inda qabul qilinadi.

Asosiy bosh maqsad umumturkiy siyosiy va madaniy-ma'rifiy birlikni mustahkamlash bo'lsa-da, jamiyat “Nizom”ida savodsizlikni

tugutish kurslarini tashkil etish, sho‘ro muxtoriyatini mustahkamlash, Turkiston muxtoriyatini saqlash va boshqalar ko‘rsatilib, shular bo‘yicha yaxshigina ishlar amalga oshiriladi. Masalan, Toshkentning eski shaharida “Birlik” uyushmasi tashkil etilganida uch yuzdan ziyod kishi qatnashib, Usmonbek rais bo‘lsa-da Munavvarqorining mavqei katta bo‘ldi. “Ittihodi taraqqiy”ga kiruvchi o‘z imkoniyatiga ko‘ra, 100 so‘mdan 250 so‘mgacha ixtiyoriy ravishda kirish badalini bergan.

Jamiyatga a‘zolari qabul qilish ishlari o‘ta maxfiy holatda olib borilgan. Kiruvchiga tashkilotning bir a‘zosi tavsiya bergan. Shundan so‘ng u parda ortidagilarni ko‘rmasdan kimningdir baland ovozda qasamyod so‘zlarini eshitgach, uni takrorlab, qo‘lini Qur’oni karim va to‘pponcha ustiga qo‘yib, qasam ichgan. Sirni hech kimga ochmaslikka, berilgan topshiriqlarni jonini ham, molini ham ayamay



bajarishga va'da bergan. Xullas, bu maxfiy tashkilot a'zolari bir-birini tanimasdan, hatto rahbar ham kimligini bilmasdan millat manfaati uchun xizmat qilgan. Tashkilotni viloyat va tumanlardagi bo'linmalari ham shu qoidaga qat'iy amal qilgan. "Ittihodi taraqqiy" a'zolari dastlabki paytda ellik atrofida bo'lib, Turkiyadagi "Ittihodi taraqqiy" tashkiloti bilan aloqa bog'lab, undan yordam olishga harakat qilib, ikki marta o'z vakillarini yuboradi. Birinchisi, 1918-yilda Istanbulga borgan paytda yosh turkiyaliklar hokimiyati ag'darilgani sababli besamar orqaga qaytadi.

Ikkinchi vakillari: Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Saidnosir Mirjalilov, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqalardan iborat bo'lib, 1919-yilda ular Turkistondan maxfiy chiqib ketayotganini sho'ro CHK (favqulodda qo'mita) xodimlari bilib qolishadi. Shunda Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Moskvada,



Saidnosir Mirjalilov Tiflisdagi yashirinib, keyin qaytib keladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning sheriklarini Shahrisabzda CHK xodimlari ushlab olib, Qarshida Buxoro amiri odamlari tomonidan qatl ettiriladi.

“Ittihodi taraqqiy” 1920-yilda “Ittihod milliy” deb qayta tashkil etildi. Uning oldingi shahar va viloyatlardagi bo‘limlari saqlanib qolindi. Munavvar qorining yozishicha, Turkiston sovetlarining 8-qurultoyida jadidlik milliy guruh tuzib, kommunistik mustamlakachi Kazakov va boshqalarga qarshi kurashni ajoyib oldirgach, “Ittihodi milliy” tez rivoj topadi.

Uning Nizomi (ustavi) “Ittihodi taraqqiy” ustavining aynan o‘zi bo‘lgan. Unga “Ittihod taraqqiy”ning hamma a‘zolari va 8-qurultoyda tuzilgan T.Risqulov boshchiligidagi guruh va boshqalar a‘zo bo‘lib kirgan. Tashkilot nafaqat Turkistondagi, balki butun O‘rta Osiyoda millatlarni birlashtiruvchi katta siyosiy markaz

bo'lgan. Buni o'sha paytda hozirgi Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa joylarda ham o'z vakillari bo'lgani isbotlab turibdi.

Tashkilotning maqsadi haqida Munavvar qori yozadi: *“Keyingi payt, bu 18-yillar, sho'ro hukumatining holi tang, uning tezda yiqilishiga ishonchimiz qat'iy edi. Biz aynan ana shu mo'mentg'a — uning yiqilishini to'liq tayyorlang'an holda kutib olish uchun hozirlik ko'rardik... Shul bilan birga tashkilot sho'ro hukumatiga maxfiy kurash olib borib, ayniqsa, Farg'ona, Samarqand, Buxoroda “bosmachilik” urushi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatardi”*.

“Ittihodi milliy”, ya'ni “Milliy ittihad” milliy istiqlol uchun kurash olib bordi va 1926-yilgacha katta tarixiy ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu orada kommunistik mustamlaka hech cheklanmagan yakka hukmronlikni o'rnatdi. Uning g'arazli maqsad-

laridan biri qadim-qadimdan shakllangan musulmonlardagi umumiy birlik va qon-qardoshlik rishtalarini hamda umumiy kuch birligini parchalash bo'ldi. Mana shuning uchun ham mustabid tuzum korchalonlari 1924-1925-yillarda O'rta Osiyoda milliy-hududiy davlat chegaralanishini o'tkazib, mutlaqo qaram mustamlaka — milliy ittifoqdosh respublikalarni tashkil etdi.

“Milliy istiqlol” tashkiloti “Ittihodi taraqqiy” va “Ittihodi milliy” o'rnida, aniqrog'i, ularning kommunistik mustamlaka siyosatiga qarshi tadrijiy rivojlanishi asosida 1926-yilda tarixan qayta tashkil topdi. Bu va boshqa aksilsho'ro tashkilotlar paydo bo'lishining sababi to'g'risida Munavvar qori yozadi: «*“Razmejevaniye” nima uchun kerak bo'ldi? degan savolg'a ziyolilardan biri: “Buxoro, Xorazmni hazm qilish uchun kerak”, desa, ikkinchisi “Millatni to'g'rab yedilar”, deb*



*javob bersa, uchinchisi "Razdelyay, vlast-vuy", deb ruscha maqol o'qib, piching ota-dir».*

Agar "Ittihodi taraqqiy" va "Ittihodi milliy" umumturkiston birligi va mustaqilligi uchun kurashgan bo'lsa, "Milliy istiqlol" buni ham hech inkor etmagan holda endi mustaqil O'zbekiston uchun kurashdi. Munavvar qorining ko'rsatishicha, "Milliy istiqlol" ning markazi va uning viloyat hamda boshqa joylardagi rahbarlari yoshlar bilan almashtirildi. Markazning uchlik boshqaruvi esa Aziz Lazizzoda, Salimxon Tillaxonov va G'ofirjon Musoxonovdan ibrat bo'ldi. Ammo shunday bo'lsa-da, hamma joyda ham rahbarlikni zimdan "keksa jadidlar" ning o'zlari olib bordi. Butun respublikadagi maxfiy faoliyatni esa, Munavvar qori Toshkentdan turib boshqardi. U haqda tergovga bergan javobida Salimxon Tillaxonov shunday deb yozadi: *"Bizning tashkilotimizni*

(“Milliy istiqlol”ning. — S.X.) dasturi yo‘q edi. Uning dasturi Munavvar qorining o‘zi bo‘lgan”.

Aziz Lazizzoda ham keyinchalik o‘z ustozining siyosiy faoliyati haqida quyidagilarini yozib qoldirgan: “U tashkilotning yakka-yu yagona rahbari, teran aqlli mafkurachisi, ilhomlantiruvchi, strateg, usta diplomat va boshqa shu kabi juda ijobiy kishi hisoblanadi. Uning aql-zakovati har doim hissiyotdan ustun bo‘lgan. Shuning uchun ham u o‘z harakatida kamdan-kam xatolikka yo‘l qo‘ydi. Agar Munavvar qori tashkilotga rahbar bo‘lmaganida, u bu qadar muvaffaqiyatlarga erishmas edi”.

“Milliy istiqlol” va undan oldingi tashkilotlarning yig‘ilishlari uning a‘zolari xonadonlarida “gap” bazmi, har xil mehmondorchilik niqobi ostida o‘tkaziladi. Tashkilot faollaridan biri Faxriddin maxsum Ismatullayevning gu-



vohlik berishicha, shunday “gap”lardan biri Munavvarqorining bog‘ida o‘tkazilgan. Unda Munavvar qori “Milliy istiqlol”ning hamma uyezdlarida besh kishilik rayosat (rais, kotib, xazinabon, ikki a‘zo)dan iborat bo‘limlari tuzilganligi haqida axborot bergan. Shu bilan birga, o‘z so‘zining yakunida shunday degan: *“Hozir maktablarda milliy ruh qolmadi. Bu masalada hech qanday ish qilinmayapti. Agar ahvol shunday davom etaversa, o‘zbeklarda milliy ruh yo‘qolib ketadi”*.

“Milliy istiqlol”ga a‘zolarni qabul qilish tartibi ham juda jiddiy, butunlay maxfiy va ixtiyoriy, Vatan oldidagi o‘z burchi va mas‘uliyatini to‘la his etish asosida o‘tkaziladi. Munavvar qori yozadi: *“Bizlar... sho‘ro hokimiyatining Ovrupo burjuaziyasi bilan to‘qnashuvda muqarrar ravishda halokatga uchrashini nazarda tutdik. Bizlar uning yo‘q qilinishiga ishonдик va bunga tayyorgarlik*

*ko‘rishga, sho‘ro hokimiyati halokati yuz berganida hokimiyatni qo‘lga olishga tayyor turishga qaror qildik...”*

Munavvar qori yetakchiligidagi maxfiy tashkilotlar mustaqillikka tayyorgarlikning asosiy yo‘llaridan biri hukumat, davlat korxonasi va muassasalari rahbarlarini mahalliyashtirishda deb bildi. Shuning uchun ham ular kommunistik firqaning “mahalliyashtirish siyosati” dan juda ustalik bilan foydalandi. “Milliy istiqlol” markazida maxsus tuzilgan guruh mana shu ish bilan jiddiy shug‘ullandi. Buni Ali Rasulov boshqardi.

Afsuski, aksilsho‘roviy milliy tashkilotlar maxfiy bo‘lsa ham GPU kuzatuvi ostida bo‘ldi. Bunga xoinlarning xizmati ham katta bo‘ldi. Shu sabab, “Munavvar qori to‘dasi” degan nom bilan 87 millat fidoyisi qatag‘on qilingani yuqorida aytib o‘tildi.



“Milliy istiqlol”ning Namangan bo‘limi Zayniddin qori Nasriddinov rahbarligida ish olib borib, o‘z faollari orqali Toshkent va shaxsan Munavvar qori bilan doimo aloqada bo‘lib, markaz ko‘rsatmalarini bajarib bordi. Kommunistik mustamlaka zulmiga qarshi ozodlik uchun kurash tarixida Qo‘qon shahridagi “Botir gapchilar” uyushmasi ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Uning “gap”larining qoralama yozuvi (protokoli), “Nizom”i saqlanib qolgan. Nizomda yozilishicha: *“Har bir ongli kishi o‘lkani har qanday mustamlakadan ozod qilishga intilmog‘i va O‘zbekistonda mustaqil hukumat barpo etishga harakat qilmog‘i hamda xalqni yaxshi turmush sharoiti va mehnat bilan ta‘minlashga butunlay sadoqatli bo‘lmog‘i kerak”*.

Munavvar qori yuqoridagi maxfiy milliy tashkilotlarni boshqarish barobarida ularni kommunistik mustamlakaga qarshi tarqoq



holda ko'tarilgan "bosmachilik" (partizanlik) urushlarini aniq umummaqsad va qat'iy tartib-intizom asosida birlashtirib, yagona kuch-qudratni tashkil etishga ham hissa qo'shdi. Munavvar qori qo'rboshilarga maxsus vakillarni yuborib, shaxsan o'zi Farg'ona vodiysiga borib, qo'rboshilarni murosayi madoraga chaqirib, birlashishga da'vat etgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Munavvar qori milliy mustaqillik uchun kurashning yirik namoyandasi va tashkilotchisi sifatida Buxoroda qisqa vaqt bo'lgan bo'lsa-da, bu yerdagi jadidlarning yetakchilari bilan hamkorlikda yana bir keng qamrovli umumturkiy siyosiy aksilsho'ro tashkilot — "Turkiston Milliy birligi" ("Markazlar markazi")ning Ahmad Zaki Validiy To'g'on rahbarligida tashkil topishiga behad katta hissa qo'shadi. Tashkilotning maqsadi, asosan, Turkiston mintaqasida to'la mustaqillikka erishishi va

yaxlit davlat tuzish bo'lgan edi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on tashkilotning bir necha yashirin kongresslarini o'tkazdi. Unda mintaqaning barcha joylaridan vakillar qatnashadi. Masalan, 16 vakil qatnashgan so'nggi 7-kongress 1922-yilda Toshkentda o'tkazildi. Shundan so'ng vaziyat og'irlashihi sababli To'g'on 1923-yilda Turkistondan chetga chiqib ketishga majbur bo'ladi. U shu yili Parijda Mustafo Cho'qay bilan uchrashadi. 1924-yilda "Turkiston Milliy birligi"ning Yevropadagi 1-Kongressini chaqirib, uni qayta tashkil etadi. Shundan so'ng tashkilotning Usmon Xo'ja muharrirligida "Yangi Turkiston" (1927–1932, Istanbul va Berlin) va Mustafo Cho'qay muharrirligidagi "Yosh Turkiston" (1929–1939, Parij va Berlin) jurnallari tashkil etilgan.

Taniqli jadidshunos Begali Qosimov yuqoridagi asarida yozishicha, Munavvar

qori millat tarixida, birinchi navbatda, jamoat va siyosat arbobi sifatida qoldi. XIX asrning 90-yillari oxiridan umrining soʻngigacha millat va Vatan ravnaqi, ozodligi yoʻlida kurash olib bordi. Uning butun ijodi va faoliyati mana shu ikki muqaddas mavzu atrofida kechdi. Ayniqsa, uning 1917-yillardagi faoliyati qizgʻin boʻldi. Mashhur Fevral voqealaridan koʻp oʻtmay, shu yilning martidayoq Avloniy bilan birga “Shoʻroyi islomiya” jamiyatini tuzdi. Milliy-diniy zaminga suyangan, shariatga asoslagan mustaqil Turkiston hukumatini tuzish gʻoyasini ilgari surdi. “Shoʻroyi islomiya”ning 16–23-aprelda Toshkentda boʻlib oʻtgan birinchi qurultoyida Turkiston musulmonlari deputatlarining markaziy shoʻrosi tuzilib, Munavvar qori rais boʻlib saylandi. “Markaziy shoʻro”da Behbudiy, Choʻqayev kabi taniqli maʼrifat va siyosat arboblari bor edi.

20-yillarning oʻrtalarida jadidchilikka mu-

nosabat o'zgarib Munavvar qoriga hujum boshlangan paytda ham u o'z yo'lidan qaytmadi. 1927-yilgi Toshkent okrug madaniyatchilari qurultoyida jadidchilikni himoya qilib chiqdi. 1929-yilda Munavvar qorini ikkinchi marotaba qamoqqa oldilar.

Munavvar qori XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy harakatchilikning, milliy ozodlik kurashining yetakchi namoyandalaridandir. 1921-yilda yashirin "Turkiston milliy birligi" harakatining raisligiga uning nomzodi qo'yilgani bejiz emas edi. Biroq, gap shundaki, u hech isyonga, qo'zg'olonga da'vat qilgan emas.

Ma'lumki, jadidchilik faqat ma'rifat va maorif bilangina cheklanmadi. U milliy, ijtimoiy-siyosiy va ozodlik uchun kurash singari harakatlarni qamrab olgan edi. Mana shu tarixiylik asosida Munavvar qori Abdurashidxonov mana shu keng qamrovli harakatlarning yetakchisi bo'lgan buyuk shaxs edi.

**MILLIY UNIVERSITET ASOSCHISI SIFATIDA.** Jahon tarixi guvohki, oliy ta'limga ehtiyoj ilk bor Sharqda tug'ildi. Shu ehtiyoj tufayli dastlab Sharqda an'anaviy islomiy madrasalar, G'arbda esa, ulardan an-doza olgan ovro'pacha universitetlar maydonga keldi. Xorazmshoh Ma'mun davrida Xorazm davlatida madaniyat va iqtisodiyot rivojlandi. Uning olimlarga hurmat ko'rsatishi va homiylik qilishi tufayli Xorazm poytaxti Gurganch (hozirgi Ko'hna Urganch) shahrida olimlar jamoasi yig'iladi.

Abu Rayhon Beruniy shoh Ma'mundan xorijlik va mahalliy olimlarga iltifot ko'rsatishni iltimos qiladi. Xorazmshoh yangi qurilgan ko-shonalardan birini olimlar ixtiyoriga berib, uni "Baytul hikma" ("Donishmandlar uyi") deb nomlaydi. Tarixda u "Ma'mun akademiyasi" nomi bilan mashhur. Bu yerda 70 dan ortiq olim va tolibi ilmlar, ustoz-u shogirdlar ilm bilan mashg'ul bo'ladilar.

Abdurauf Fitrat 1912-yilda yozgan “Hind sayyohi bayonoti” nomli asarida Fransiya universiteti olimi Sharl Sanivyusning ushbu so‘zlarini keltirgan: *“Ispaniya bilan Turkiston o‘rtasida savdo karvonlari bimalol borib kelardi. Ovrupoliklar musulmonlar taraqqiyotini xolis niyat bilan qabul qilib, kasb va ilm o‘rganish niyatida islom shaharlarida tahsil ko‘rdilar. Ovrupo musulmonlar bilan aloqa va munosabat o‘rnatish orqali taraqqiy qilgan. Ovrupoliklarning islom olamidanda qabul qilgan ishlari tubandagilar: Ziroat, sanoat, ilm-fan: al-jabr va-l-muqobala (algebra va ehtimollar nazariyasi. — S.X.), handasa, chizmachilik, kimyo, hisob va hokazo”*<sup>13</sup>.

AQSHning Chikago shahrida 200 ming nusxada, ingliz tilida chop etilgan ikki jildlik “Jahon qomusiy lug‘ati” da millatimiz o‘tmishi

<sup>13</sup> Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. — Т.: Маънавият, 2000. 120-бет.



haqida shunday soʻzlar bitilgan: “Oʻzbek - jahon xalqlari orasida birinchilardan boʻli oʻtroqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi jahon sivilizatsiyasiga hissa qoʻshgan millat”<sup>14</sup>.

Xullas, Ona tariximizda IX–XII va XIV–XV asrlarda yuz berib takomil topgan ikki islomiy Uygʻonish — Renessans davrlari dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti hamda uygʻonishiga behad katta hissa qoʻshgan jahonga maʼlum. Buning uchun eng asosi birdan-bir omil oliy taʼlim maskanlari — madrasalar va ularda toʻplangan olim-u ulamolarning xizmati behad katta boʻldi.

Ammo ichki oʻzaro qarama-qarshilik va murosasizlik hamda tashqi dushmanlar bosqini, mustamlakachilik sabab mamlakatd.

---

<sup>14</sup> Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар... Миллий давлатчиликимиз асослари ҳақида мулоҳазалар. — Т.: Шарқ, 1999. 7-бет.

parchalanish tanazzul va mutaassiblik, ilmsizlik, bosqinchilarga ma'naviy-aqliy qaramlik, ma'rifatsizlik hukmron bo'la boshladi. Umu- man, maorif — maktab, oliy ta'lim — mad- rasalar millat ehtiyojini qondira olmay qoldi. Bunga javoban jadidlar paydo bo'lib, mavjud maorifni, ya'ni an'anaviy maktab va madrasa- larni isloh qilish, ilm-fanni rivojlantirish zaru- riyat ekanligini anglab ishni, asosan, maktab va muallimlarni yangilashdan boshlaydi. XIX asr oxirlaridan Munavvar qori Abdurashidxo- nov Toshkent va Buxoro madrasalarida o'qi- gan paytlarida ulardagi bilim darajasi va ta'lim usullaridan aslo qoniqmaydi. Jiddiy islohot lozimligini, Yevropadagi dunyoviy ilm-fanga asoslangan oliy ta'limni o'zlashtirish lozimligini birinchilardan bo'lib anglab yetadi va o'z ja- did maktablarini shunga moslab tashkil etadi.

Jahon tarixidan ma'lumki, dunyodagi mad- rasa va universitetlar turli davrlarda turlicha



paydo bo'lib, turlicha rivojlangan. Har bir millat va xalq taraqqiyotning ma'lum bosqichiga ko'tarilgach, uning uchun oliy ta'lim obyektiv zaruriyatgina emas, balki hayotiy ehtiyojga aylanishi muqarrar. Mana shu zaruriyat Turkistonda chorizm mustamlakasi mustahkamlangach XIX asr oxirlarida ikki tomonlama zaruriyatga aylandi. Birinchisi, mustamlakani mustahkamlash uchun bo'lib, uning amaldorlari tomonidan ko'tarildi. Ikkinchisi esa, mahalliy millat va xalq uchun paydo bo'ldi. Buni jadid bobolarimiz olg'a surdilar.

Toshkentda zamonaviy oliy o'quv yurtini tashkil etish g'oyasini birinchi bo'lib, Rossiyadagi jadidchilik harakatining g'oyaviy rahnamosi va amaliy tashkilotchisi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) 1892-yilda Turkiston general-gubernatori Vrevskiyga yozgan maxsus maktubida ko'tarib, madrasalardan birini musulmonlar uchun zamonaviy ovrupacha

oliy o'quv yurtiga aylantirish zarurligini uqti-radi. Ammo bunga missioner N.P.Ostro-umov mutlaqo qarshi chiqadi. Shunga asosla-nib, general-gubernator maktubga "Oqibatsiz qoldirilsin" deb imzo chekadi.

Shunga qaramay, rus ziyoli va olimlari Toshkentda universitet tashkil etish harakatiga tushishadi. Bunga qarshilar ham ko'p edi. Buni taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold ham qo'llab-quvvatlaydi. 1902-yilda sharqshunos olim va harbiy amaldor S.F.Oldenburger maxsus maqola bilan chiqib, shunday deydi: "*Ru-siya ham Sharqda ilmiy maktab (oliy o'quv yurti. — S.X.) tashkil etib, rus sharqshunos-ligiga mustahkam poydevor yaratsa, ayni maqsadga muvofiq bo'lur edi. Toshkent esa shu ilmiy maktab faoliyat ko'rsatishi uchun juda qulay markaz bo'lishi mumkin*"<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илди-лари ва ташкил топиши. — Т.: Шарк, 2003. 26-бет.

Turkistonda rus universiteti ochilishi haqidagi munozarada mahalliy millat manfaatini hisobga oluvchilar ham bo'ldi. Masalan, G. Andreyev "Turkistonda universitet ochilishiga doir" nomli maqola bilan chiqib, uning faqat ruslar uchun ochilishini tanqid qiladi. "O'lkada, — deb yozadi u, — universitet ochilishi haqidagi munosabat bilan beixtiyor shunday fikr tug'iladi. Universitet faqat ruslar uchun bo'lsa, bizning mahalliy yerliklarimiz nima qiladi?"<sup>16</sup>. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Ehtiyoji millat" nomli maqolasida shunday deb yozadi: "...Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur"<sup>17</sup>.

---

<sup>16</sup> Андреев Г. К открытию университета в Туркестане (Ещё несколько слов об инородном образовании в крае). // Туркестанские ведомости. 1917 г., 10 ноябр, №244.

<sup>17</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. — Т.: Маънавият, 2000. 117-бет.

Hazrat bu maqolasida asosan ovrupo-cha dunyoviy oliy ta'lim millat ehtiyoji bo'lib turganligini ro'yi-rost aytadi. Va maqola-ning xulosa qismida yaqin o'n yilda boylar-ning yordamida "200 muhandis, do'qtur, huquqshunos, muallim, texnik, zamona to-jiri"<sup>18</sup> tayyorlanishi milliy zaruriyat ekanligini ko'rsatadi.

Otashin jadid va millatparvar Abdurauf Fitrat jadidlar yordamida Turkiyada o'qib yurgan paytidayoq, Buxoroda tibbiyot mad-rasasi (universieti) tashkil etilishini orzu qila-di va buni o'zining 1912-yilda yozgan "Hind sayyohi bayonoti" nomli asarida dunyo ko'rgan, dunyo taraqqiyotidan to'la xabardor bir hind sayyohi nomidan shunday bayon qiladi: "*Bu-xoro hukumati yirik madrasalardan birini tib-biyot madrasasiga aylantirsin va bu dargohga*

---

<sup>18</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлди-рилган 2-нашри. – Т.: Маънавият, 2000. 134-бет.

*dono do'kturlardan birini mudarris qilib tayinlasin. Peterburg va Farangistonning yirik shaharlaridan donishmand muallimlarni taklif etsinlar. Boshqa jihatdan Buxoroning o'tkir zehqli yosh yigitlarini Ovrupoga yuborib, tib ilmimi o'qutsinlar"*<sup>19</sup>.

Ko'rinib turibdiki, jadidlar faqat g'oya bilangina cheklanmaganlar. Ular zamonaviy milliy oliy ta'limni yaratish uchun aniq taklif, reja, dastur va harakat bilan mashg'ul bo'lganlar. Shu o'rinda Munavvar qori Abdurashidxonovning tarixiy xizmatlari alohida tahsinga sazovor. U yangi dunyoviy ta'limning millat va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini juda yuksak darajada anglagan holda davr talabiga xos va mos milliy oliy ta'limni yaratdi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Muhtaram Munavvar qori Abdurashidxonov millat holati va davr talabiga ko'ra, o'z

---

<sup>19</sup> Фитрат А. Танланган асарлар. 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. 134-бет.

aql-zakovati va faoliyatini milliy oliy ta'limni qaror toptirishga ham baxshida etdi. Bu uch bosqichdan iborat bo'ldi. Birinchidan, u o'z jadid maktablarini shu bo'lajak milliy oliy ta'limga moslab tashkil etdi. Bularda diniy ta'lim bilan birgalikda asosan rus tili, matematika, ona tili, geografiya kabi dunyoviy ilmlar o'qitildi.

Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu so'zlari e'tiborga molikdir: *“Turkistonda muallim chiqarmoq uchun... Shu muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan-to'g'ri Toshkentda Munavvar qori janoblarining maktablariga yubormoq kerakdurki, mushorun ilayhning shunday g'oliblarini mamnuniyat ila qabul etmoqlarina amindurmiz”*<sup>20</sup>.

---

<sup>20</sup> Behбудий М. Мухтарам ёшларга мурожаат. “Ойна” журнали. 1914, 41-сон.

Ikkinchi bosqichda Munavvar qori Abdurashidxonov muntazam ravishda oliy o'quv yurtini tashkil etish masalalari bilan jiddiy mashg'ul bo'ldi. Masalan, u Toshkent shahar dumasiga a'zo bo'lib saylangach, uning 1917-yil 21-avgustdagi dastlabki majlisida boshqa taniqli jadid deputatlar bilan birgalikda qatnashdi.

Dumada birinchi bor Toshkentda universitet tashkil etish masalasi muhokama etilib, tashkil etish uchun maxsus komissiya tuziladi. Bu komissiyaga Munavvar qori bilan oliy ma'lumotli advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Sodiq Abdusattorov kiritiladi. Munavvarqori universitet o'quv dasturini ishlab chiqishga musulmonlar manfaati hisobga olinishi, xususan, tarix va sharqshunoslik fakultetlari ularga moslashtirilishi lozimligini ta'kidladi<sup>21</sup>.

---

<sup>21</sup> Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илди-злари ва ташкил топиши. – Т.: Шарк, 2003. 46-бет.

Bundan oldin Ubaydullaxo‘ja Asadulaxo‘jayev ham rasman o‘zining “Sadoyi Turkiston” gazetasida Turkiston Rusiya tomonidan bosib olinishining 50 yilligi bayram qilinishiga tayyorgarlik boshlanishi munosabati bilan o‘lka harbiy ma‘muriyatiga murojaat qilib, “ellik yillik sadoqat” evaziga Toshkentda bir oliy dorilmuallimin (o‘qituvchilar instituti) va bir madrasayi oliya (universitet) ochib berishni iltimos qilgan edi<sup>22</sup>.

Munavvar qori do‘st-u hammaslklari bilan 1909-yilda “Ko‘mak” xayriya jamiyatini tashkil etib, muruvvatli boylarning moddiy yordami asosida millat farzandlarini taraqqiy etgan mamlakatlarga o‘qishga yuborilishiga rahnamolik qildi. Bu to‘g‘rida taniqli bastakor, jadid Abdurahmon Akbarov yozadi:

---

<sup>22</sup> Курсатилган асар, 47-бет.



*“To‘dadagi<sup>23</sup> jadidlarning bosh rahbari bo‘lgan Munavvar qori bir kun to‘daning majlisiga kelib: “Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o‘qitish kerak”, deb uzoq nutq so‘zladi. Shundan keyin to‘daning rahbarlaridan 7-8 kishi Orifxo‘jaboyning Yangi shahardagi hovlisida shu haqda birinchi marta majlis o‘tkazdilar. Ammo “Toshkent boyonlarining ko‘pchiligi bo‘lishi”ni ma‘qul topishib, ikkinchi yig‘in majlisini shayxxovandtahurlik Kattaxo‘ja Xo‘jayevning uyida o‘tkazishga qaror qildilar.*

*...1916-yil oxirlari edi. Oradan chamasi 15 kunlar keyin Kattaxo‘ja Xo‘jayevning uyida ikkinchi marta katta yig‘in bo‘ldi. Bu majlisga Toshkentning eng mashhur boyonlari yig‘ildilar. Jumladan, Orifxo‘jaboy,*

---

<sup>23</sup> Jadidlar uyushmasi. Abdulla Avloniy ham o‘z tarjimai holidi 1904-yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim deb yozadi.

Saidkarimboy, Komiljonboy choyfurushtash, Asil oqsoqol, Boqijonboy va boshqalar.

Bu yerga to'planganlarning soni 50-60 ga yetardi. Buni tashkil qilishda ko'proq tashabbus ko'rsatgan Munavvar qori bilan Ilhom samovarchi va Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'illari edi. Hamma yig'ilgach, majlis ochilib birinchi bo'lib Munavvar qori so'zga chiqdi. Munavvar qori: "O'zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz, bolalar o'qub, ilm tahsil olub kelsalar, millatiga katta xizmat qila oladilar", degan so'zlar bilan uzoq nutq so'zladi. Uning ketidan Munavvar qorining so'zini quvvatlab Samig' qori chiqib so'zladi, oxirida necha kishi va kimlar yuborilishi haqida savollar berildi. Samig' qori "boradigan kishilarning ro'yxati bor", deb domla Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'lidan ro'yxatni o'qib berishni so'radi... Germaniyaga o'qib kelish uchun boruv-

chilar shular ekan: 1. Shayx Xovand Tahur dahasidan Abdulvahob Murodiy, yana bir kishi xotiramda yo'q. Beshyog'och dahasidan ham ikki kishi: 1-si Chaqar mahallalik A'zam soatsoz o'g'li, jami 4 kishi ekan. Munavvar qori yana o'rnidan turib: "Jamoat, mana bu yosh o'smir bolalarimizning Germaniyaga borib o'qib kelishlari faqat siz boyonlarimizning yordami ostida vujudga chiqadi", deyishi bilan o'tirgan boylardan biri Munavvar qorining qo'liga anchagina pul beradi... Pul to'planib, sanab bo'lingandan keyin Munavvar qori o'rnidan turib: "Millatimizning kelajakdagi baxt-u saodati uchun shunday katta himmatlaringizga ko'pchilik tomondan rahmatlar aytaman", deb tashakkur bildirdi"<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup> Ko'chirma Sirojiddin Ahmedovning "Munavvar qori" nomli essesidan olindi. Қаранг: "Шарқ юлдузи" журн., 1992, 5-сон, 107-108-бетлар.

Jadidchilik harakati tarixida Munavvar qorining bu kabi millat kelajagi to'g'risidagi da'vatkorona dil so'zlari ko'p uchraydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, jadidchilik harakati paydo bo'lganidan so'ng jadid xayriya jamiyatlari yordamida xorij mamlakatlarida o'qigan yoshlarning soni tez ko'paydi.

Ma'lum bo'lgan hujjatlarning guvohlik berishicha, Turkiyada 1911-yil 15 ta, 1912-yilda 30 ta talaba o'qigani ma'lum<sup>25</sup>. Boshqa yana bir tadqiqotda 1910-yilda Istanbulda 50 ta buxorolik o'qigani ko'rsatiladi<sup>26</sup>.

Jadidlar tashabbusi bilan 1922-yilda ham Turkiston va Buxorodan 70 dan ortiq yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborilgani ma'lum. Hozircha topilgan arxiv hujjatlarining guvohlik

<sup>25</sup> Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ, 1994. 74-бет.

<sup>26</sup> Гафуров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате (Начало XX века). – Худжанд, 2000. – стр. 93.

berishicha, 1924-1925 o'quv yilida Germaniyada o'qigan 56 ta talabanning ro'yxati aniq. Ular 55 va 45 dollardan stipendiya olganlar<sup>27</sup>.

Munavvar qori yetakchiligidagi jadid ziyolilari milliy oliy ta'lim uchun harakat qilayotgan bir paytda tarkibida birorta ham mahalliy xalq vakili bo'lmagan Turkiston xalq komissarlari soveti Toshkentda Turkiston xalq universiteti tashkil etish haqida 1918-yil 16-martda qaror qabul qiladi. Ammo unda xalqimiz manfaati e'tiborga olinmaydi. Bu ruscha xalq universiteti shu yil 21-aprelda katta tantana bilan Toshkentning yangi shahar qismida ochilib ishga tushadi.

Turkiston sovet hukumati qaroridan voqif bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxonov endi uchinchi bosqichda juda katta jasorat

---

<sup>27</sup> ЎзР МДА. 34-жамғарма, 1-йиғмажилд, 2522-иш, 35-варақнинг иккинчи томони. Бу ҳужжатни бизга доцент Ш.Оразимбетов берган.

va tashabbuskorlik bilan bevosita Musulmon xalq dorilfununini tashkil etishga kirishadi. 1918-yil 9-aprelda o'z uyida musulmon jadid madaniy-ma'rifiy jamiyatlari vakillarini yig'ib, Musulmon xalq dorilfununi ochish haqida ilk bor maxsus rasmiy muzokara o'tkazadi. Yig'ilganlar Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligida 9 kishidan iborat Musulmon xalq dorilfununi tashkiliy komissiyasini tuzadi. Komissiya tezlik bilan o'z maqsadini va qarorini Maorif xalq komissarligi sho'rosiga bildirgach, bu tashabbus qo'llab-quvvatlanadi va 9 apreldan boshlab komissiya a'zolariga bajar-gan ishlariga qarab, 200 dan 450 so'mgacha maosh berish belgilanadi.

Tashkiliy komissiyaning 3-maydagi majlisida Munavvar qori Abdurashidxonov Musulmon xalq dorilfununi raisi (rektori), Iso To'xtaboyev raisning birinchi, Burhon Habib ikkinchi muovini, Abdusamiqori Ziyoboyev

xazinabon, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadi. Tashkiliy komissiyaning jami 9 majlisi bo'lib, ularda dorilfununning tashkiliy ishlari va tuzilish tartibi, nizomi, o'quv dasturlari mualliflar va ular oladigan maosh belgilanadi. Masalan, ruscha sarkotib Ahmad Vali Yenikeyevga darsliklar tayyorlash komissiyasida ham ishlashi e'tiborga olinib 600 so'm, yana 4 o'qituvchiga 500 so'mdan oshirilgan oylik belgilanadi.

Tashkiliy komissiyaning 3-majlisi (16-aprel)da dorilfununning oliy bosqichi — dorilmuallimin (o'qituvchilar instituti) ochilishi belgilanadi. Musulmon xalq dorilfununining tashkiliy komissiyasi hisobi (hisoboti)da yozilishicha, 6-maydagi majlisda ruscha Turkiston xalq universiteti raisi (rektori) professor O.V.Popov ham qatnashib shunday deydi:

“Musulmonlar uchun murshid (instruktor) va muallimlar hozirlaydigan bir dorilmuallimin

ochilmoq kerakdir. Xalq dorilfununining rus va musulmon shoʻbalari qoʻlni qoʻlga ushlab va bir-biriga yordam va muovanat (yordam)da boʻlsalar kerak va ham bundan keyin dorilfununni ikki deb emas, balki ikkisi ham bir maqsadga xizmat qilgʻani uchun bir dorilfunun deb atamoq kerakdir. Musulmon xalq dorilfununi uchun musulmoncha bir gazeta (“Xalq dorilfununi”) nashr etuv va ul gazeta mumkin boʻlgan darajada rus xalq dorilfununi gazetasi — “Norodniy universitet” ila birga boruvi teyishlidir”.

1918-yil 12-may shanba kuni Eski shaharda Musulmon xalq dorilfununining “rasmi kushodi” — rasmiy tantanali ochilish marosimi boʻladi. Bunda hukumat aʼzolari, musulmon va Rus xalq dorilfununi rahbarlari, xodimlari va boshqalar qatnashadi. Munavvarqori tantanali yigʻilishni ochib, musulmonlar chorizm davrida rus yoʻqsillari bilan birgalikda yarim



asr qullikda yashaganini, ozodlik katta talafotlar evaziga qo'lg'a kiritilganini alohida ta'kidlab, *"Xalqning ilmga ko'p ziyoda muhtojligi... qonlarini to'kib olgan hurriyatidan so'n turkistonliklarga ham o'qimoqqa imkon topilgani"* haqida to'xtalib, harbiylarga xos usuld yig'ilganlarni hurriyat shahidlarini xotirlab bibe necha daqiqa oyoqqa turib, sukut saqlashga chaqiradi. Askariy musiqa marshi chalinadi. So'ngra musulmon hurriyat shahidlari uchun Samig'qori afandi Kalomi sharifdan suralari o'qib, fотиha tortadi. Turkiston xalq komissarlari birin-ketin otashin nutqlar so'zlashadi. Masalan, Tashqi ishlar xalq komissari, ese firqasi a'zosi P.A. Domagatskiy shunday deydi: *"Mening ishonchim komilki, bugundar boshlab katta og'a tushunchasi ham, kichik og'a tushunchasi ham bo'lmaydi. Endi yagona demokratiya hukmron bo'ladi..."*

Xulosa shuki, Munavvarqorining sa'y-harakati ila milliy oliy ta'limga juda mustahkamlar



asos solindi, aniqrog‘i, hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining milliy asosi yaratildi.

Behbudiyning Munavvar qori maktabi oliy milliy ta‘limga asos bo‘ladi degan ishonchi oqlandi. Buning guvohi bo‘lgan A.A.Di-vayev quvonch bilan shunday deydi: *“Mana, bugun Toshkentda Musulmon dorilfununi ochilishi tantanasida qatnashishga muyassar bo‘ldik. Turkiston uchun tong otdi, yorug‘ quyosh balqidi... Yashasin Turkiston xalqi-ning tayanchi va umidi bo‘lgan o‘quv yurti!”*

Musulmon milliy xalq dorilfununi 45 kishi-lik kengash tomonidan boshqarildi. Uning il-miy-ijodiy va muallimlari jamoasi 299 kishiga yetdi. Shulardan 22 tasi oliy diniy madrasa-larni, 2 tasi Rusiya universitetini bitirgan.

Dorilfunun tashkiliy jihatdan o‘z bunyod-kori yetakchiligida olib borilgan tezkor ishlar samarasi ila uch (oliy, o‘rta maxsus va quyi)

rini ojizona ajzi niyoz etamiz...<sup>28</sup>

Bu xatga Musulmon xalq dorilfununi soveti (sho'rosi) raisi Burhon Habib imzo chekkan. Ikkinchi xatni Toshkent Eski shahar ijroiya komitetiga ruscha yozilib, unda dorilfunun domla va xodimlari uchun 1918-yil 30-may ertalab soat 10:00 ga izvoshchik (foytun) so'ralgan. Bu xatni Musulmon xalq dorilfununi raisi (rektori) Munavvar qori Abdurashidxonov imzolagan.

Mazkur ikki xatda dorilfununning rasmiy blankasi, o'zbekcha va ruscha nomlari, eng muhimi, muhri juda aniq aks etgan. Shuning uchun ham bu qimmatli tarixiy hujjatning fotonusxasini shu yerda ilk bor ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ming bor ajabki, Turkistonda kommunistik mustamlaka — sovet hokimiyat mustahkamlari.

<sup>28</sup> Bu xatni O'zR FA Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzey ilmiy xodimi, f.f.n., dotsent Yusuf Tursunov o'qib bergan uchun, unga minnatdorlik bildirib o'tishga burchliman.

nishi bilan mamlakatimiz manfaati, shuningdek, milliy dorilfunun rivoji va uning asoschisining oliy ta'lim sohasidagi faoliyati ham cheklandi. 1919-yil oxirlarida esa, dorilfunun butunlay tugatildi. Ruscha xalq universitetiga davlat maqomi berilib, u "Turkiston davlat universiteti" deb nomlandi.

Bu paytga kelib 1918-yilda Moskva va Sankt-Peterburgda ish boshlagan Turkiston universiteti tashkiliy qo'mitasi ham o'z faoliyatini yakunlaydi. Shu sababdan ham Moskvada professor N.A.Dimo rahbarligidagi talabalarsiz universitet fakultet va kafedralar tizimida 102 ta professor-o'qituvchi va xodimlardan iborat holda tashkil topadi. Uni Toshkentga ko'chirish harakati boshlanadi. Shulardan 43 ta professor va 43 ta o'qituvchi Toshkentga keladi. Ular laboratoriya jihozlari, o'simliklar gerbariysi va 50 000 nusxa kitob olib keladi. Toshkentda universitet ishlab turgan bo'lsa-da,

go'yo yo'qdan bor qilmoqchi bo'lishgandir. Rossiya sho'ro hukumati boshlig'i Vladimir Ilich Lenin 1920-yil 7-sentabrda Toshkentdagi Rossiya mablag'i va olimlari evaziga Toshkent davlat universitetini ta'xis etish haqida dekret qabul qiladi. U gazetada bosilgach, mahalliy sho'ro hukumati Maorif Xalq komissariyati dekret Turkiston hukumati konstitutsiyasiga zid degan ma'noda norozi bo'lib qaror qabul qiladi. Bunga sabab dekretda Toshkentda 1919-yildan beri ishlab turgan universitet e'tibor olinmagani bo'lsa kerak...

Sho'ro Rossiyasi hech qanday mablag' ajrata olmaydi. Mana shular sabab dekret chiqarilgan o'zidan ahamiyatini yo'qotib qog'ozda qolib ketadi. Leninning o'zi 1922-yilda universitetni yopish harakatida bo'ladi. Ammo mahalliy hukumat rahbarlari mablag' topib, uni saqlay qoladi. Universitetni ilk bor 1921-yilda 6 yil tibbiyot mutaxassisi bitiradi. Shundan bu

bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Lenin dekreti 1935-yilda arxivdan topib olinib, universitet asoschisi Lenin degan soxta tushuncha va butun aksilinsoniy kommunistik mafkura yakkahukmronligi davomida haqiqatga teskari ravishda millat ong-u tafakkuriga singdirildi.

Kamina ham bu nomilliy, noto'g'ri kommunistik siyosatga moyil tarixchi olim sifatida va ustoz Hamid Ziyoyev so'zi bilan aytsak, "ongli qul" sifat dissertatsiya-yu o'nlab kitob-u maqolalar yozib "kattagina" hissa qo'shdi. Allohga shukronalar bo'lsinki, bu kommunistik illat tarixda qolganiga 31 yil to'ldi. Shunida alohida aytish lozimki, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tashkil topishi va rivojlanishida rus olimlarining xizmati behad katta bo'ldi. Garchand bu universitet kommunistik mustamlaka va mafkura manfaati uchun qurilgan bo'lsa-da. Tarixdan ma'lumki, xalqlarda qanday siyosat

ustun bo‘lishidan qat’i nazar, bir-birini to‘g‘ri tushunish, o‘zaro hamdo‘stlik rishtalari qaysidir bir ma’no va darajada mustahkamlanish odatlari mavjud. Buni dono siyosatchi va zukko tashkilotchi Munavvar qori rus olimlari bilan bamaslahat Milliy universitetning milliy asosi – Musulmon xalq dorilfununini tashkil etgani va universitetning asosiy profesor-o‘qituvchilari, dasturlari Rossiyadan kelgani isbotlab turibdi.

Xullas, Munavvar qori Abdurashidxonovning xizmati ila ilk bor dunyoga kelgan Musulmon xalq dorilfununi nafaqat birgina hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetning, balki butun milliy dunyoviy oliy ta’limimizning dastlabki milliy namunaviy asosi bo‘lib tarixda qoldi. Agar u g‘arazli maqsadda tugatilmaganida milliy oliy ta’lim va uning taraqqiyoti boshqacha yo‘ldan rivojlanar edi. Masala shundaki, universitetda fakultetlar soni 1921-yilda 8 taga yetsa-da, shu yili o‘zbek

talabalari 0,5; keyingi yili 3,2; 1925-yilda esa 8 foiznigina tashkil etdi. Bu holat uzoq davom etdi. O'qish rus tilida bo'ldi. Buning sababi va maqsadi ma'lum, albatta.

Darhaqiqat, bugungi O'zMU birgina O'zbekistondagina emas, butun O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasidagi ilk zamonaviy — dunyoviy oliy o'quv yurti edi. U — mazkur mintaqadagi ilm-fan, maorif-madaniyat beshigi. Birgina O'zbekiston emas, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistondagi ilk oliy o'quv yurti, ilm-fan, maorif dargohlari-ga ham o'z vaqtida bugungi O'zMU doyalik qilgan.

O'zMUning Musulmon xalq dorilfununi (1918)dan bugungi Milliy universitet (2000) davrigacha bosib o'tgan yo'li, shu jumladan, Turkiston xalq universiteti (1918), Turkiston davlat universiteti (1919—1923), O'rta Osiyo davlat universiteti (1923—1960), Toshkent



davlat universiteti (1960–2000) davrlari ham murakkab, ham ibratli kechdi. Shu yerda butun insoniyat taraqqiyotida o‘ziga xos buyuk yangilik bo‘lgani televideniye (“telefot”)ning 1928-yilda ilk bor xuddi shu dargohda kash etilganini va buni 1971-yilda YUNESKO e’tirof etganini eslash kifoya.

Mana shu O‘zMUning tub milliy asosi — Musulmon xalq dorilfununini shaxsiy tashabbus bilan tashkil etib boshqargan Munavvar qori Abdurashidxonovning qadr-qimmatini va tarixiy xizmati, u jon fido qilgan istiqloq manfaatligina anglandi. Buning uchun Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovdan minnatdor bo‘lishimiz kerak.

Islom Karimov 2000-yil 6-yanvarda Toshkent shahar saylovchilari bilan bo‘lgan uchrashuvda, Toshkent davlat universitetiga “Milliy universitet” maqomini berishni taklif qilib shunday deydi: *“Toshkent universi*

tetit 1920-yilda Rossiyadan kelgan “bolshvoy”lar vakillari tomonidan emas, balki 1918-yilda fidoyi ma’rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Turkiston xalq milliy dorilfununi sifatida faoliyat boshlagan.

*Bu haqiqani butun jamiyatimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bilishlari kerak deb o’ylayman. Bu tarixiy voqea universitet peshtoqiga alohida lavha qilib yozib qo’yishga munosib”.*

Islom Karimov mana shunga asosan 2000-yil 28-yanvarda “Toshkent davlat universitetiga “O‘zbekiston Milliy universiteti” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni imzoladi.

Unda Munavvar qorining Musulmon xalq dorilfununi tashkil topgan sana — 1918-yil 12-may O‘zMUning tavallud sanasi deb belgilandi. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin: Nega universitetning ruscha asosi — Turkiston xalq universiteti tashkil topgan sana

1918-yil 21-aprel e'tiborga olinmadi degan. Bu sana ham o'z tarixiy o'rniga ega. Lekin u milliy emas, ruscha. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning farmonida Munavvar qori Abdurashidxonovning millat oldidagi xizmati haqiqatan milliy miqyosda ulug'lanib, ham milliy haqiqat, ham milliy tarixiy qadriyat tiklandi.

Vaqt kelib, yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Munavvar qori Abdurashidxonovning ko'p qirrali tarixiy xizmatlarini juda yuksak darajada o'z o'rnida qadrladi. Uni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotladilar. Bu albatta, Munavvar qorining ruhi poklari oldidagi o'ta yuksak ishbo'ldi.

**MILLIY ADABIYOT, MATBUOT VA JURNALISTIKA SOHASIDAGI FAOLIYATI.** Tarixdan ma'lumki, o'tgan XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yuz ber-

gan jadid milliy uygʻonish harakatining asosiy bosh maqsadi Turkistonni yangilash, millat va xalqni mustamlaka ijtimoiy-siyosiy hamda mafkuraviy gʻafolat uyqusidan uygʻotish, eng asosiysi, milliy mustaqil davlatni qayta tiklash hamda adolat va tenglikni qaror toptirish boʻlgani bor haqiqat.

Bu oʻta buyuk, hatto, tasavvur qilish juda qiyin boʻlgan maqsadni ilgʻor jadid ziyolilari oldindan aql-u tafakkur ila toʻgʻri anglagan holda jaholatga qarshi maʼrifat shiori ostida katta matonat bilan kurashdi. Natijada tariximizda sodir boʻlmagan koʻpgina mutlaqo yangi milliy madaniy-maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy yutuqlarga erishdilar.

XX asr boshlarida yangi adabiyot shakllandi, milliy matbuot yoʻlga qoʻyildi. Shuningdek, bulardan tashqari yana ikkita tarixiy yangilik — milliy jurnalistika va bosma nashr ham ilk bor paydo boʻldi. Bu jamlangan toʻrt-

ta yangilik dunyoga kelib millatga xizmat qila boshlashida Munavvar qori Abdurashidxonovning hissasi ham bor, albatta.

Aytib o'tganimizdek, Munavvar qori butun faoliyati, aql-u tafakkurini Vatan va millat taqdiriga baxshida etib, asosan, jamoat hamda siyosat arbobi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, milliy adabiyotga befarq bo'lmay, bolalarning yetuk adibi va shoiri bo'lib tanildi. Uning bu qobiliyatini adabiyotshunos olim Begali Qosimov juda yuksak darajada ta'riflaydi: *"Munavvar qori adib sifatida ham ma'lum e'tibor va nufuzga ega edi. Xususan, uning "Adibi avval", "Adibi soniy" kitoblari darslik-majmua yo'sinida yozilgan bo'lib, ko'p she'riy va nasriy ixcham hikoyalarni o'z ichiga olgan. Har birining so'ngida "hissa" — xulosa chiqirilgan. Ular, mavzuiga ko'ra, xilma-xil. Ko'pchiligi tarixiy mavzuda. Yo'l-yo'nalishiga ko'ra, ibratomuz pand-*

*lardan tashkil topgan, tili sodda, o'qilishi qiziqarli. Hikoyalar orasida XX asr boshidagi tarixiy voqealar, ijtimoiy-maishiy turmush manzaralari haqida yozilganlari ham anchagina*"<sup>29</sup>.

Ko'rinib turibdiki, yangi adabiyotimizning yangi yo'nalishi — bolalar adabiyoti shakllanishida Munavvar qorining o'rni sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Munavvar qori to'g'ridan-to'g'ri Hamzaga ustoz bo'lib, ijodiy yordam berib, kitoblari chop etilishiga ko'maklashgani ma'lum. Hamza esa unga xatlar yozib, "pir", "muhtaram ustoz oliy" deb ulug'lab maslahatlar so'raydi. Ustoz oliy shogirdiga javob xatlarini yozadi. Bularning ba'zi birlarida quyidagicha samimiy maslahatlar mavjud:

*"... She'ringiz-da, yaxshi, faqat "Marhabo" kabi she'rlar chiqorilub, o'rniga kichikroq*

<sup>29</sup> Қосимов Б. Курсатилган асар, 239-бет.

she'rlar aralashtirilsa, yana yaxshiroq bo'ladi. "Turdiqul" ila "Ikki maktub" kitobini menimcha, maqbul ko'rilmadi. Agarda ishlantirilib yuborsangiz she'r ila "Feruzaxonim" "Turkiston kutubxonasi" nashr qilib ko'rsatilsa..."

"... "Feruzaxonim" ila boshqa kitoblarni sizningizni ertaga po'chtadan, inshoolloh, yuboraman. Agarda "Feruzaxonim" man aytqochi, ya'ni: eshon va boylarning mal'un ablahliklarini ochiqdan-ochiq "mal'un", "hil", "xoin", "palid", "nobakor" kabi so'z ila emas, qilgan ishlarining yomonligi ko'rsatilsa..."<sup>30</sup>

Bolalarning yetuk adibi va shoiri Munavvar qoridan badiiy ijod namunasi sifatida necha she'r va hikoyalar qolgan. Bularning hammasi madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy

---

<sup>30</sup> Абдурашидхон М. "Мен сендаман". Асарлар (Иккинчи тўлдирилган нашри). – Т.: Info Capital Group, 2018. – 528-бет.



yot masalalari hamda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga oid. Ular bundan bir asr muqaddam yozilgan bo'lsa-da, hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yanada aniqroq ayt-sak, Prezidentimizning 2022—2026-yillarga mo'ljallangan yettita ustuvor yo'nalish va yuzta aniq maqsadni o'z ichiga qamrab olgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang bo'lib turibdi.

Shu boisdan, muhtaram o'quvchi! Sizga Munavvar qorining quyidagi ixcham, ammo keng qamrovli ikki she'r va bir hikoyasini o'qib mulohaza yuritishingiz uchun tavsiya etmoqdaman.

Men bularni o'qigan paytlarimda tarixchi bo'lganim uchunmi, butun jadidchilik tarixi, shu bilan birga, uning yetakchi namoyondalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov hayot faoliyati va taqdiri ko'z o'ngimdan birma-bir o'tadi.



Ayniqsa, uning “Yalqovlik yovimizdir” degan she’ri juda ajoyib, u bolalarnigina emas balki barcha katta-yu kichikni o‘z yovi — dushmani — yalqovlikdan uyg‘otib ishlashga ishbilarmonlikka bizni ham chorlab turibdi. Agar ta’bir joiz bo‘lsa, bu she’riy merosning zamonaviy mazmun-u da’vati butun millat va xalqimizni chorakkam bir asrlik kommunistik g‘aflat uyqusi asoratlaridan to‘la-to‘kis tozlash, o‘zlikni anglash, xullas, uchinchi Milliy uyg‘onish — Renessansni yaratishga chorlab bong urib turibdi.

Ma’lumki, bu Munavvar qori va uning safdoshlari qalbida armonlari ko‘p edi. Bu kabi armon-u orzular vaqti kelib qaror topishi tarixiy qonuniyatdir. Buning uchun Munavvar qori aytmoqchi, yalqovlikni tashlash lozim. Chunki yalqovlik insonlar uchun dushman sanaladi.

## YALQOVLIK YOVIMIZDIR

Qo'zg'olingiz, ey o'rtoqlar! Keldi bizga  
ishlash chog'i,  
Biz barchamiz yosh ishchimiz, ishxonamiz  
— maktab bog'i.  
Turing, tezroq ish boshlaylik,  
Yalqovlikni biz tashlaylik!

Ko'kdan bulut yomg'ir sochar, suvlar oqar,  
o'tlar o'sar,  
Qushlar uchar, oziq izlar, butun dunyo  
tinmay ishlar.  
Siz ham turing, ey o'rtoqlar,  
Yurt obro'sin yoshlar saqlar.

Tanballikdir bizga dushman, ishlamoqning  
zamonidir,  
Tinib turmas "yoshman" degan, ish  
insonning bir jonidir.  
Tirik bo'lsang, qo'zg'ol, o'rtoq!

Qo‘lga ishni tez ol, o‘rtoq!

Jannat kabi go‘zal yurting yig‘lab, sendan  
ish kutadir,  
Senda ko‘rgach ishsizlikni, hasrat chekib,  
qon yutadir.

Tur o‘rningdan, och ko‘zingni,  
Ayt yovingga so‘ng so‘zingni.

Yoving kimdir, bilasanmi? Nodonlikdir,  
yalqovlikdir,  
Yovga qarshi kurashmaslik —  
qo‘rqoqlikdir, anqovlikdir.

Ish qilichin, tur, qo‘lga ol!  
Yovga qarshi chindan qo‘zg‘ol!

## KUZ

Kuzning sovuq yeli esib,  
Sarg‘aytirdi yoz yuzini.



O'simliklar titrab, qaqshab,  
Tutolmay qoldi o'zini.

Ko'k yuzin bulut qoplab,  
Qishloq elin siqishtirdi.  
Ekinchilar shoshib-pishib,  
Ekinlarin yig'ishtirdi.

Kuz askari keldi bosib,  
Qirildi yaprog'lar, o'tlar.  
Go'yo buning motamida  
Ko'z yoshin to'kdi bulutlar.

Gullarning rangi sarg'aydi,  
To'kildi yerga yaprog'lar.  
Qarg'alarga makon bo'ldi  
Bulbuldan ayrilib bog'lar.

Ertalab ko'rsang qirovlar  
Oqartirgan yer yuzini.

Kechqurun bulut qoplagan  
Ko'kning oy ham yulduzini.

Sevingandan olaqarg'a  
Qag'illaydi bo'ynin cho'zib.  
Qo'rqqanidan bog'chachilar,  
Uzumlarin oldi uzib.

Ey kuz! Sening ishlaringdan  
Bir yaxshisi esga keldi:  
Yoz bo'yicha yopiq turgan  
Maktablar senda ochildi.

## DEVPECHAK

Bir kuni dehqon sakkiz yoshli o'g'lini y  
taklab bog'chasiga kirdi. Bog'chada oli  
nok, shaftoli, o'rik, anor, anjir ham uzum ka  
har turli yemish og'ochlari yam-yashil bo'  
ko'kargan. O'riklarning dovuchchalari y  
bolalarni qiziqtiradigan bir tusda osilib tu



gan edi. Ota-bola bog'chada keza-keza bir yosh o'rik og'ochining tagiga yetdilar. Bola qo'l uzatib, haligi o'rikdan ikki-uch dona uzib og'ziga soldi. O'rik dumbul edi. Qars-qurs chaynagandan so'ngra: "Otajon, bu o'rik qanday chiroylik ham qanday totli!" — dedi. Otasi: "O'g'lim! Bu o'rik og'ochini sen tug'ilgan kunda senga atab ekkan edim. Hozirda bu ham senga o'xshab, sakkiz yoshga kirdi. Ikkingiz tengsiz, bu kundan boshlab, og'ochning egasi sen. Sen o'zing boq, o'zing sug'or, yemishlarini istagancha ye, o'rtoqlaringga ber, nima qilsang, qil!" — dedi.

Bola otasining bu so'zlariga juda sevindi. Og'ochga yaqinroq borib, diqqat bilan qaradi. Ostdan bir o't chiqib, og'ochga chirmasha boshlaganin ko'rdi.

— Otajon, bu qanday o't, nima uchun mening o'rigimga chirmashadir?

— O'g'lim! Bu "devpechak" degan o'tdir.

Buni tezlik bilan yulib tozalamasa, bir necha kun ichida butun og‘ochni o‘rab olib, darrov quritadir. Bu o‘t uchun ildiz ham kerak emas. og‘ochning bir shoxida ozgina bir bo‘lagi qolsa ham o‘sib ketib, butun shoxlarni qoplaydilar.

— Bo‘lmasa, ertaga kirib bu dushmanni butun ildizlarini yulib, o‘rigimni tozalab qo‘yaman.

— Balli, o‘g‘lim, shunday qil, unutma!

Ota-bola bu suhbatdan so‘ng qo‘l ushlab, bog‘chadan chiqib ketdilar.

Ertasiga o‘rik bolaning esidan chiqib ketdi. Oradan o‘n besh kun o‘tdi. Bolaning esiga birdan bog‘chadagi o‘rigi va unga chirmashgan devpechak tushdi. Yugurgancha bog‘chaga kirdi, o‘rikning tagiga borib qarasa, allaqachon devpechak o‘rikni butun shoxlarigacha o‘rab olgan, yashil yaproqlarni sarg‘aytirgan totli yemishlarini so‘ldirgan edi.

\* \* \*

Tabiiyki, hozirgi o'zbek milliy matbuoti, jurnalistikasi va bosma nashri qachon paydo bo'ldi degan savol tug'ilishi mumkin. Javob shuki, bular tarixda ilk Chor Rossiyasining mustabid mustamlaka zulmiga qarshi paydo bo'lib rivojlangan tinch demokratik milliy madaniy-ma'rifiy harakat — jadidchilikning yutug'i sifatida paydo bo'ldi.

Bu tarixiy va unutilmas yutuqda ham buyuk ma'rifat, aql-zakovat sohibi, jamoat va siyosat arbobi, millat va yoshlarning fidoyisi Munavvar qori Abdurashidxonovning bevosita shaxsiy-amaliy va tashkilotchilik hissasi bor edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu paytda tarixan qulay imkoniyat yuzaga keldi. Rossiya podshosi Nikolay II xalq noroziligiga javoban 1905-yil 17-oktabrda maxsus manifest qabul qilib, unda so'z, matbuot erkinligi-



ni xo‘jako‘rsin usulida e‘lon qilishga majbur bo‘lgan edi. Bunga javoban avval Ivan Geyer muharrirligida o‘zbek tilida “O‘rta Osiyoning umrguzaronligi” gazetasi, keyin esa u Ismoil Gabidov boshchiligida “Taraqqiy” nomida chop etildi.

Geyer ish boshlashidan oldin o‘z gazetasini tahririyatiga ishga olish uchun “Turkiston viloyatining gazetasi”da ishlayotgan mulla Olim Abdulqosimovdan mahalliy aholidan o‘zlariga sadoqatda bo‘ladigan bir ziyolini topib berishni iltimos qiladi. Shunda u Geyerga Munavvar qorini tavsiya qiladi. Mana shu sabab taqdir taqozosiga ko‘ra, Munavvar qori Abdurashidxonov birinchi o‘zbek tilidagi milliy gazetada juda katta ishtiyoq bilan ish boshlaydi.

Millat va yoshlarning haqqoniy fidoyisi va g‘amxo‘ri gazetada o‘z xalqi manfaati, kelajak taraqqiyoti g‘oyalarini himoya qilish ba-

robarida o'zining matbuotga oid tashkilotchilik, muharrirlik va jurnalistlik qobiliyati, tajribasini juda teran pishirdi. Ko'pgina maqolalar yozib, gazetaga bostirdi. Masalan, "Nikoh to'g'risida" (1906-yil, 3- va 7-fevral, 7-mart); "Bizni(ng) jaholat — jahli murakkab" (1906-yil, 14-iyun) shular jumlasidan.

Munavvar qorining sa'y-harakatlari tufayli mahalliy tilni yaxshi biladagan, ayni paytda, rus tilida ham bimalol gaplasha oladigan qozonlik Ismoil Obidiy (Izmail Eldinovich Gabidov) tashkil etilajak "Taraqqiy" gazetasiga muharrirlik qilish uchun taklif qilindi.

"Taraqqiy" da mahalliy milliy aholi turmushiga oid quyidagicha materiallar bosildi:

"Xo'qand shahridagi musulmoniya fuqarolarining majlislarida bo'lgon maslahat va mashvaratlarining mazmuni ushbular ekan" (3-son), "To'qmoqdin kelgan maktub" (5-son), "Musulmonlarni(ng) yangi nizomlari xu-

susida” (7-son) va boshqalar.

Taniqli jadidshunos jurnalist olim Boybo‘ta Do‘stqorayev “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” darsligida o‘z xulosasini bildirishi bilan birga, gazeta tahririyatining ehtiyotkorlik maqsadini quyidagicha ko‘rsatadi:

“*“Taraqqiy” dastlabki sonlaridanoq mahalliy aholiga Rossiya imperiyasining mohiyatini, milliy zulm, mustabidlik nimaligini, erk, ozodlik qanchalik buyuk ne‘mat ekanligini anglatishga harakat qildi. Gazeta muharriri bilimdon va aqlli inson bo‘lganidan tahririyat ishini puxtalik bilan boshqarib bordi. Mustabidlarni “hurkitib yubormaslik” uchun gazeta 1-sonining oxirgi — to‘rtinchi sahifasida o‘z maslagini pardaliroq qilib bildiradi... “Gazetamiz “Taraqqiy” nominda o‘lub, — deb yoziladi tahririyat maqolasida, — bora-bora jismi ham ismig‘a muvofiq o‘lub, millatimizni “keyin” qolmog‘ig‘a, ja-*

*holat va g'aflati oliyda o'lub, boshqa millatlardan kam darajada qolmog'ig'a aslo rozi emasmiz... binoan alayh (shunga ko'ra), gazetamizning najotimizga, dunyo va oxiratda mas'ud o'lmoqimizg'a yolg'uz ilm bo'bidur, demak birinchi vazifasidur".*

Xullas Chorizm ma'muriyati "Taraqqiy"ni o'ziga dushman bilib, 1906-yil 21-avgustda 20-sonini musodara qilib tugatdi. Gazeta muharririni qamoqqa oldi. Shundan so'ng Munavvar qori rasmiy ruxsat olib, 1906-yil 6-sentabrda o'zi noshir va muharrir bo'lib, "Xurshid" gazetasini chiqardi. Unga Fanusullobek Xudoyorxonov sherik va muovin bo'ldi. Muhammad Rahimxo'ja, Nuriddin Xo'jayev va mulla ZiyO Oxund gazetaning mudarrisleri lavozimida ishladilar. "Xurshid" sakkiz sahifali bo'lib, dastlab haftada bir mar-ta chiqdi va tezda haftada 2-3 bor chop etilishi aytili.

“Xurshid” jadidchilik harakati va jadidlarning g‘oyasi va maqsadini ochiq va dadil yoritdi.

Boybo‘ta Do‘stqorayev uning maqsadi, vazifasi va mazmunini ham jiddiy o‘rgangan. Shuning uchun ham undan olingan quyidagi kattagina iqtibosni berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

*“Gazeta o‘sha davrda Turkistonni mustaqillikka olib chiqish uchun ijtimoiy faoliyat sahnasiga chiqqan jadidlarning fikrlarini, g‘oyalarini xalqqa yetkazish uchun minbar vazifasini bajardi. Shu bois, uning sahifalarida maktab va madrasalarni isloh qilish, mahalliy aholi turmushidan o‘rin olgan nojoiz, ortiqcha rasm-rusumlarga barham berish, milliy zulm, mustabidlikning nima ekanini anglatish kabi masalalar yoritildi. Milliy birlik, milliy uyushqoqlikni targ‘ib qildi.*

Gazeta zamonaviy ilm-fanni egallash

lozimligini aholiga shu tariqa sodda, ayni zamonda, mantiqqa asoslangan holda tushuntiradi. Bunda din omilini ham hisobga olmaslik mumkin emasdi. Shu bois “Xurshid” deyarli har bir maqolasida ilgari surilgan masalaning islom dini nuqtayi nazaridan maqbulligiga alohida to‘xtalgan”<sup>31</sup>.

Mana shu jadidona milliy ruh va maqsadlar sababli mustabid chorizm mustamlakasi-ning zulmkorlari tomonidan “Xurshid” gazetasi 1906-yil 16-noyabrda 10-soni chiqqach, tamoman tugatildi. Shundan so‘ng Abdulla Avloniy “Shuhrat” gazetasini chaqarishga ruxsat olib, uni 1907-yil 1-dekabrda chop eta boshladi. 9-sonidan boshlab u 6 sahifali bo‘lib chiqqan. Aslida gazetani zimdan Munavvar qori boshqargan. Uning obunachilari 252 ta bo‘lgan. Gazeta 1908-yil 2-fevralda yopilgan.

<sup>31</sup> Дустқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи (1-қисм; 1870–1917-йил ноябр) дарслик. – Т: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. 122-123-бетлар.



Munavvar qori matbuot millatni uygʻotuvchi vosita ekanligini yaxshi anglagan holda bu maqsadidan qaytmaydi. Bir uchrashuvda Fansurullobek Munavvar qoriga davlatga qarshi fikrlar uchun surgun qilinishi mumkinligini aytadi. Shunda u shunday javob beradi: *“Men surgun qilishlariga achinmayman, xalqni matbuotsiz qoldirganlariga achinaman”*.

Munavvar qori 1915-yil mart oyida Abdurahmon Sayyoh Sodiqov nomiga rasmiylashtirib Toshkentda chiqa boshlagan “Al-Isloh” jurnaliga asos soldi. Jurnalning bir sonida bank bilan bogʻliq sudxoʻrlik haqida material bosiladi. Shunda 1916-yil 23-aprelda Turkiston maxfiy boʻlimiga chaqirilib, undan “Banklar xususidagi savolga javob”ga oʻxshash maqola joylashtirsam, Turkiston oʻlkasidan “surgun qilinaman” degan mazmunda tilxat yozdirib oladi.

1917-yil Fevral inqilobidan soʻng “Tur-

kiston viloyatining gazetasi” Munavvar qorining qo‘liga o‘tadi. U gazetani “Najot” deb qayta nomlaydi. Shunda gazetaning sobiq rahbari N.P. Ostroumov norozi bo‘lib yozadi: “34 yil mobaynida sartlarning ruslarga yaqinlashtirish va o‘ziga xosligini saqlash”ga... amal qilib kelgan “viloyat gazetasi”... Munavvar qori qo‘liga o‘tib ketdi”.

Munavvar qori Abdurashidxonov matbuotga oid faoliyatini qarshilik va tahdidlar ko‘p bo‘lsa-da, aslo susaytirmaydi. U o‘z do‘sti va hammaslagi Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev bilan birga, uning noshirligi va bosh muharrirligida “Sadoyi Turkiston” gazetasini tashkil etadi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev o‘zbekchani biroz sustroq bilar edi. Shu sabab asosiy ishni Munavvar qori bajarardi.

Munavvar qorining yana bir siyosiy faoliyatiga oid ma‘lumot. Polkovnik Volkov Munavvar qorini surgun qilish haqida shikoyat



yozadi. Turkiston general-gubernatori esa uning xalq ichidagi obro'si va mahalliy boy-lar orasidagi nufuzidan cho'chib, bu taklifni ma'qullamaydi.

Xulosa shuki, Munavvar qori Abdurashidxonov o'zi yetakchi bo'lgan milliy uyg'onish — jadidchilik harakatining jamoat va siyosat, madaniyat va ma'rifat arbobi sifatida hozirgi milliy adabiyot, matbuot, jurnalistikaning yuzaga kelishi va rivojlanishiga kattagina hissa qo'shgan atoqli va buyuk tarixiy shaxs edi.



**HIKMATLI  
SO‘ZLARI**



Ezilgan millatning haqiqiy dushmani jaholatdir. Bir millat jaholatdan qutulmaguncha oyog'lar ostindan turolmas.

\* \* \*

Yurt obro'sini yoshlar saqlar.

\* \* \*

O'zaro janjallarimizni bir tarafga tashlab qo'yib, qo'l qo'lga berishib, butun tish va tirnog'imiz bilan maorifga yopishmasak, Turkiston maorifi o'ldi va Turkistonning porloq kelajagidan umid uzuldi demakdir. Chunki, Turkistonning porloq kelgusi, balki hayoti va qo'rqinchli qorong'ilikdan qutulishi faqat maorifgagina bog'liqdir.

\* \* \*



Turkiston maorifparvarlari, sho'rolar hukumati davrida xiyla keng plan va g'oyalar bilan ishga kirishgan edilar: besh yil inqilob davri-ning avvalgi yillarida maorif ishlarimiz g'oyat yorug' va zo'r umidlik bir holga kira boshlagan va bu yo'lda asosli bir zamin hozirlana boshlagan chog'da maorif birdan turg'unlik va tushkunlikka yo'liqib qoldi.

\* \* \*

Umumiy dushmanimiz bo'lg'on jaholat bilan kurashmakka barcha o'zbek maorif-madaniyat xodimlarini da'vat qilamiz.

\* \* \*

Endi o'z holimiz va o'z tariximizga boqsak, bir vaqtlar Ovrupo vaxshiy ekan, biz madaniy edik, ... Turkiston turklari madrasa va rasadxonalar bino qilmoq kabi madaniy ishlar bilan mashg'ul edilar.

\* \* \*

Bugungacha Ovrupo xalqi osmong'a uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo'g'rofiya va tabiiyot o'qitish-o'qitmaslik ixtiloflari... davom etadi.

\* \* \*

XX asr boshlaridan e'tiboran bizda ham maorif va madaniyat so'zlarini og'izg'a oluvchi, taraqqiyot va taoliyning kerakligidan matbuotda yozuvchi, majlislarda so'zlaguvchilar chiqdi, bilfe'l, yangi usul maktablari ochildi. Gazetalar chiqorildi. "Jamiyati xayriya" va "Nashri maorif" uyushmalari tashkil etildi, faqat chor hukumatining politsiyalari, oxrannaya otdeleniyalari bunday madaniy ishlarda yerlik xalqqa ochiq yo'l bermadi.

\* \* \*

Hukumatning quvish va siqishlari ularni umidsizlantirmadi, maqsad va maslaklarida davom etdilar. Hech mumkin bo'lmag'on bir zamonda chetga o'quvchilar yubordilar. Maktablarni o'rta darajalarga qadar olib bordilar. Jamiyatlar chetga ketuvchi o'quvchilarga, maktablarga moddiy va ma'naviy yordam berarlik darajada kuchga ega bo'ldi.

\* \* \*

Eski Toshkent maorif sho'basining so'nggi olg'on hisobi bo'yincha, butun yangi maktab shogirdlari 4000 to'lmag'on holda eski maktab qozixonalarda 7000 qadar millat bolasining ezilib yotqonlig'i ko'rinadir.

\* \* \*

Butun dunyodagi hurriyatchilar orasida bir soʻz bor: “Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olub boʻlmas, faqat qon va qurbon ilagina olub boʻlur”. Mana bu jumlar haqiqatga shul qadar muvofiqdurki, hazrati Odamdan shul vaqtgacha hech bir davlat va mamlakatda hurriyatning berilgani, qon va qurbonsiz berilgani tarixlarda koʻrilmaydur. Balki, har zamon va yerda hurriyat berilmagan, olingan, ham koʻp qon va qurbonlar barobarinagina olingan.

\* \* \*

Vaholanki, boshqa viloyatlarda xat bilmaydigan kishi yuzdan bir boʻlsa, Turkiston viloyatida yuzdan toʻqson.

\* \* \*

Oʻzbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib oʻqitishga juda muhtojmiz. Bolalar oʻqib, ilm tahsil olib kelsalar, millatga xizmat qiladilar.

\* \* \*

Qanday aybni qo‘ymasinlar, bo‘yni-  
ngizga oling (*qamoqxonadagilarga aytilgan  
bu gap. — S.X*). Aks holda, biz ozodlikda  
yurgan yor-do‘stlarimizning nomlarini aytib,  
ularning qamalishiga sababchi bo‘lamiz. Biz  
o‘zimizning hayotimizni qurbon qilish evaziga  
millatni saqlab qolishimiz lozim.

\* \* \*

Meni surgun qilishlariga achinmayman,  
xalq matbuotsiz qoldirganlari uchun achi-  
naman.

\* \* \*

Ruslar bilan doimiy ravishda muloqotda  
bo‘lish, ayniqsa, savdo, ma‘muriy, temir yo‘l  
kabi turli jabhalarda faoliyat olib borish uchun  
mahalliy aholi har xil bilimlarni egallashda



qurol bo‘lgan rus tilini bilishi kerakligiga iqror bo‘lyapman.

\* \* \*

Ilm — bilmagan narsalarini bilganlardan o‘rganmoqdir. Ilm — odamning zihnini ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratni saodatli va sharofatli qilur.

\* \* \*

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,  
Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.

\* \* \*

Teatrning ma‘nosi ibratxona yoki “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsar, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur.

\* \* \*

Shunday kishar ila do'st va yo'ldosh bo'lmoq kerakki, shodligingda shod, xafaligingda xafa bo'lsin. Oshga o'rtoq, boshga to'qmoq bo'lmasin.

\* \* \*

Kishining bor ersa ota va onasi,  
G'animatdur anga alarning rizosi.  
Xudoning qoshida qabuli yaqindur  
Ota va onaning bolaga duosi.  
Alarning kim og'ritsa ko'ngillarini,  
Qiyomatda bo'lgay jahannam jazosi.

\* \* \*

Maktab — bolalarning ikkinchi beshiklaridir. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob

o'rgatub, aql va fikrlarini o'stururlar. Bolalar uchun tanning salomatlig'i lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatlig'i undan ortig'roq lozimdur. Chunki aql va fikrsiz tandan na o'zi uchun va na boshqa kishilar uchun hech bir foyda yo'qdur. Shul sababli bolalarga avvalgi beshikdan ko'ra, ikkinchi beshik bo'lgan — maktab yaxshiroq va foydaliroqdur.

\* \* \*

Erur maktab maorifning makoni,  
Zamonidur buning yoshlik zamon.  
Kishi qilg'ay kishini ushbu maktab,  
Bitirgay har ishini ushbu maktab.  
Bu maktabda o'qug'on har bir inson,  
Bilub ilm-u odob bo'lg'ay musulmon.  
Necha ilm ol, odob dunyodakim bor,  
Chiqubdur barchasi maktabdan, ey yor.

**E'TIROF**

\* \* \*

Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi.

**Shavkat Mirziyoyev,**  
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

\* \* \*

1919-yildagi yanvar voqeasi davrida eski Juvadagi bosmaxonaning ikkinchi qavatida yoshlarning birlashgan yig'ilishi bo'ldi. Bunda "Izchilar" muzika orkestri "Yashasin Munavvarqori! Yashsin millat!" deb ashula aytdi.

Toshkentda uni bilmaydigan odam yo'q. U jadidlarning buyuk kishilaridan biri, "Sho'royi Islomiya" ning asosiy tashkilotchisi bo'lgan.

### **Tangriqulhoji Maqsudov**

\* \* \*

Munavvar qoriga quyidagicha baho berish mumkin: u tashkilotning yakka-yu yagona rahbari, teran aqli mafkurachi, ilhomlantiruvchi, strateng, usta diplomat va boshqa shu kabi juda ijobiy kishi hisoblanadi. Uning aql-zakovati har doim hissiyotdan ustun bo'lgan, shuning uchun ham u o'z harakatida kamdan-kam xatolikka yo'l qo'ydi.

**Laziz Azizzoda**

\* \* \*

Munavvar qori firqa va sho'ro hukumati-ning o'z-o'zidan aynib ketishiga ishonadi.

Munavvar qori hech qanday sotsializmga ishonmaydi, u haqda juda ham xira tushunchaga ega.

**Salimxon Tillaxonov**

\* \* \*

Cho'q munavvar etti olamni Munavvar  
qorimiz,  
Ko'rdimiz ravshanlig'idan fe'limiz,  
atvorimiz.  
Ibrat oling, yoshlar, deb to'kdi ko'zdin  
yoshlar,  
Nutqida tahrir edub, bizlarni yo'q-u  
borimiz.  
Chin ko'nguldan biz eshitduk, chin-achig'  
aytgan so'zi  
Shuncha bid'atlarni bilduk, voy, biz  
iqrorimiz.

**Tavallo (To'lagan Xo'jamiyrov)**

\* \* \*

Turkistondagi ma'naviy va maorif sohasidagi kurashda Munavvar qori Toshkentda qanday o'rinda tursa, Samarqandda Qori Komil ham shunday o'rin egalladi.

**Ahmad Zaki Validiy Tug'on**

\* \* \*

Tarixni shaxslar yaratadi, tarix tarjimai hollardan, ayniqsa, atoqli kishilarning tarjimai hollaridan iboratdir deyдилar. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o'tgan asr so'ngidan boshlangan uyg'onish davrini boshlab Munavvar qori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilar davri boshdan oxirigacha Munavvar qorining tarjimai holidan iboratdir desak yanglishmaymiz.

Munavvar qori turkistonliklarning siyosiy tashkillanish ishlarida va mustaqil davlat qurish g'oyasining qaror topishida uzoqni ko'ra olgan bir ishonchli dohiy edi.

**Ibrohim Yorqin**



\* \* \*

Munavvar qori bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyot va milliy mafkurachilikning sogʻlom tuxumlarini chochqon va ming turli ogʻirliq va toʻsqunchiliqlarga qaramasdan bularni koʻkartishga muvaffaq boʻlgʻon bir zotdir. Uning milliy maktablari Turkistonning minglarcha bolalariga milliy ruh bergan va ularni erk ham millat sevgisi-la qurollantirgan.

**Abdulvahob Murodiy**

\* \* \*

Munavvar qori xalqimiz boshiga tushgan chorizm va bolshevizm mustamlakachiligi yillarida “Men — sendamen: sen — mendasen” hikmatiga muvofiq, elimiz, millatimiz qalbiga maʼrifat va ozodlik, erk va hurlik urugʻini sochib, yurt hayotining sertashvish yoʻllarini munavvar qilgan yoʻlchi yulduz edi...

O'zbek xalqining XX asrdagi milliy taraqqiyot va istiqlol uchun kurashi tarixini Munavvar qori Abdurashidxonovsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki u butun hayotini vatan-doshlarini ma'rifatli qilish, yurtimizni mustamlakachilik iskanjasidan xalos etishga bag'ishlagan ulug' zotlardan biridir.

**Naim Karimov**

\* \* \*

Munavvar qori XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy harkatchilikning, milliy ozodlik ko'tarilishining eng e'tiborli namoyandalari-dandir. Munavvar qori publitsistikasi, darsliklari XX asr boshi o'zbek ijtimoiy-siyosiy tafakkurining, madaniyati, ma'rifatining mumtoz va betakror sahifalaridir...

Munavvar qori millatning uyg'onishiga yordam beradigan deyarli hamma soha bilan shug'ullandi. Lekin ulardan uchtasi alohida ajralib turadi. Bular: maorif, matbuot, siyosiy faoliyat...

Munavvar qori yoshlarni rivojlangan mamlakatlarda o'qitish, shu orqali millat va Vatanni farzandlarga tanitish, dunyoni anglatish ishlari-ga alohida e'tibor berdi. Uning butun ijodi va faoliyati mana shu ikki mavzu atrofida kechdi.

## **Begali Qosimov**

\* \* \*

Eli uchun kuyib-yongan, bag'ri qonidan mayoq ko'targan kishilarning nomi hech qachon unut bo'lmaydi. Bunday insonlarni siyosatbozlar qanchalik qoralamasinlar, o'zlari el-yurt, tarix va zamon oldida sharmanda bo'lib qolaveradilar. Zero, fidoyi kishilarni el-yurt ham, tarix ham o'z yuragida asrab-avaylaydi.

Xalqimiz arzanda qilib, avloddan-avlodga uzatayotgan ana shunday siymolardan biri adib, shoir va pedagog, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxonov edi...

Munavvar qori Abdurashidxonov matbuot va milliy teatr oldiga aynan bir maqsad: mil-

latning ijtimoiy-siyosiy ongini oshirish, o'z hayotiga tanqidiy baho berish, istibdoddan qutulishning qonuniy yo'llarini izlash masalasini qo'ydi.

**Sirojiddin Ahmedov**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурашидхонов М. Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Тошкент: Шарқ, 2001.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. – Т.: Маънавият, 2000.
3. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги НМИУ, 2009.
4. Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар... (Миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар). – Т: Шарқ, 1999.
5. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи С.Аҳмедов). – Тошкент: Маънавият, 2003.
6. Абдурашидхонов М. Мен сендамен. Асарлар (иккинчи, тўлдирилган нашри). – Т.: Info Capital Group, 2019.
7. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997.

8. Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000.

9. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. – Т.: Шарқ, 2003.

10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.

11. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Тошкент: Шарқ, 1994.

## MUNDARIJA

Hayot yo'li.....	4
Faoliyati.....	21
Hikmatli so'zlari.....	129
E'tirof.....	139
Foydalanilgan adabiyotlar.....	148

*Ilmiy-ommabop nashr*

**MUNAVVAR QORI  
ABDURASHIDXONOV**

<i>Muharrir</i>	Saidmurod Xolbekov
<i>Badiiy muharrir</i>	Muhammadxon Yusupov
<i>Texnik muharrir</i>	Dilmurod Jalilov
<i>Sahifalovchi</i>	Axtam Ro'zimurotov
<i>Musahhih</i>	Nigora G'aniyeva



Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{32}$ . AcademyUz garniturası.  
Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.  
Adadi 23 000 nusxa. 07-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

“HILOL NASHR” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.